

**Azim Jabborov**

**PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING  
ETNIK A S O S L A R I**

**Qarshi - 2006**

## **Kirish**

Mamlakatimizning istiqlol yo`lidagi birinchi qarashlaridanoq ma`naviyatimizni tiklash va yanada yoksaltirish, milliy ta`lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, uni zamon talablari bilan uyg`unlashtirib jahon andozalari darajasiga chiqarish ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Ushbu vazifalarni og`ishmay bajarish uchun «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingan bo`lib, ularda taraqqiyotning ma`naviy asosi bo`lgan inson omiliga g`oyat katta ahamiyat berildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Eski mafkuradan xalos bo`lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o`rgatolmaymiz, axir. ... darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg`or namunalari aks etishi kerak,» - deya alohida ta`kidlagan edi.

Inson omili bilan bog`liq milliy dasturning barcha muhim vazifalarini hal qilishda psixologiya fani alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur o`quv qo`llanma ham «Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari» ga doir dolzarb muammolarga bag`ishlangan bo`lib, o`quvchilarning yosh davrlariga xos qonuniyatlarni, individual psixologik xususiyatlarini o`rganib, ular yashab turgan milliy, hududiy xususiyatlar va xalq pedagogikasi durdonalarini e`tiborga olgan holda o`quv – tarbiya jarayonlarini tashkil etish bilan bog`liq qiziqarli mavzularda bahs yoritadi.

Mazkur o`quv qo`llanma pedagogik psixologiyaning etnik asoslari haqida ilk tajriba sifatida taqdim etilmoqda. SHunga ko`ra qo`llanma pedagogik va psixolog mutaxassislar tayyorlash jarayonida ular uchun zarur bo`lgan kasbiy bilimlar, ko`nikmalar va malakalarni shakllantirishda yordam beradi deb o`ylaymiz.

Ushbu o`quv qo`llanma psixolog, pedagog va o`qituvchi mutaxassislar tayyorlashda hamda maktablarda faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchi va murabbiylar uchun muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

## **TARIXIY XOTIRA – MILLIY O`ZLIKNI ANGLASH OMILI**

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” asarida “Biz tortimizni yangi bosqichga, yangi roksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug` g`oya kerak. Bu g`oyaning zamirida xalqimizning o`zligini anglashi yotadi. Haqiqiy tarixni bilmasdan turib esa o`zlikni anglash mumkin emas” deb alohida ta`kidlab o`tganlar. O`z – o`zidan ma`lumki, haqiqiy tarix – bu har bir xalq va millatning etnos sifatida shakillanishidan boshlanadi.

To`g`ri, millatni milliy xususiyatlari psixologiya fanida kam o`rganilganligi bilan alohida ajralib turadi. Hozirgi paytda milliy xususiyatlarning shakllanish bosqichlari, uning tarkibiy qismlari, milliy ongning ontogenizi, o`ziga xos xususiyatlari va o`zini – o`zi anglash kabi muammolarning o`rganilishi psixologiya fani uchun dolzarb masalalar sirasiga kiradi. SHuni qayd qilish kerakki, respublikamizda mustaqillik sharofati bilan milliy xususiyatlar va milliy o`zini-o`zi anglash muammofiga qiziqish ortdi.

Biz mazkur mavzuga qisman javob topish uchun tarix, etnografiya, falsafa, soqiologiya va pedagogika fanlarining ma`lumotlaridan, shuningdek, O`zbekistonning hozirgi hududida yashagan kishilarning fe`l – atvori ifodalangan mavjud ashyoviy dalillar va qo`lyozmalardan foydalandik. O`zbek xalqining milliy qadriyatlari, xalq og`zaki ijodidagi folklorini psixologik jihatdan tahlil qildik. Ma`lumki, har bir tadqiqotchi milliy xususiyatlar va milliy o`zini – o`zi anglash jarayonini o`rganganda turgan gapki o`z fanining imkoniyatlari asosida yondoshishga intiladi. Tarixchilar va faylasuf-larning tadqiqotlari natijalariga murojaat qilinsa, ularning nuqtai nazarida millat, xalq, elat tushunchasi haqida, millat shaklla-nishining asosiy bosqichlari haqida etarli darajada to`g`ri ta`riflarni topish mumkin.

Bu muammoga psixologiya fani qanday yondoshadi? Psixologiya fanining ana shu sohadagi vazifalari haqida to`xtalib, L. Fevr shunday degan edi: “Tarixiy psixologiyaning vazifasi insoniyatning aql – idroki, orzu umidlari va hissiyotlarini yozishdan iboratdir” (Fevyre. L. Combots pour l'Historie. P., 1953). Bizningcha, L. Fevrning ana shu gapiga qo`shimcha qilib ta`kidlash joizki, tarixiy psixologiya o`zining vazifalaridan biri sifatida milliy xususiyatlar va ularning shakllanishi tarixini ham o`rganishi kerak. Millat, elat, qabila, etnik

guruqlar, umuman, insoniyat jamiyatining tarixan tarkib topgan turli birliklaridir. Rivojlanish darjasи va miqyosi bo`yicha ana shu birliklar o`rtasida katta tafovut borligi ularda ijtimoiy, iqtisodiy, etnik va demografik jarayonlar bir xilda kechmaganining natijasidir.

Ana shu ma`noda “etnos” (etnik birlik) – kishilar ijtimoiy guruhining tarixan vujudga kelgan alohida turi, ular jamoa bo`lib yashashining alohida shaklidir. Bunday birlik tarixiy yo`l bilan tabiiy ravishda paydo bo`ladi va o`zini – o`zi qayta tiklashi hisobiga ko`p asrlar yashay oladi” (IO.V. Bromley. Etnicheskie proqessy v sovremennom mire. M., 1972, str. 5). Bunday fikrni Abu Nasr Forobiy asarlarida ham uchratish mumkin. Olimning ta`kidlashicha, etnos kishilarning bevosita aloqalari tufayli shakllangan. Buning uchun ular birlashishi, bir hududda qo`shni bo`lib yashashi, bitta tilda gaplashishi kerak. Til va hududning birligi odamlar tirikchiligining asosiy shartlari va tabiiy zarurat bo`lib, ayni paytda etnosning shakllanishi va rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Turmush tarzi va etnosning o`ziga xosligi sababli u yoki bu til shakllanib mavjud narsalarni ifodalashga moslashgan. Agar mazkur soha millatning turmush tarzida mavjud bo`lmasa, u tilda ham ifodalanmagan. Etnosning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan tili, urf – odatlari, marosimlari, san`ati, dini, xulq – atvor me`yorlari etnosning madaniy birligini qaror toptirgan. Bu esa ularning psixik xususiyatlari, qadriyatlari, didi va hokazolarining o`ziga xosligini belgilaydi.

Ana shu jihatdan ayrim hollarda til, ba`zi hollarda xo`jalik maishiy xususiyatlар va yana boshqa hollarda xulq – atvorning xarakterli tomonlari asosiy rolб o`ynaydi. Lekin, etnos uchun amaldagi qadriyat – me`yor tizimi (milliy madaniyat) ongning doimiy komponenti bo`lib qolaveradi. I. A. SHkuratovning yozishicha, tabiatdagi singari madaniyatda ham energiyaning saqlanish qonuni mavjud. Insonning qachonlardir yo`qolgan energiyasi madaniy ob`ektida to`planadi va yangi energiya sarflanishiga (uni o`zlashtirish uchun) asos bo`ladi (energiya so`zini fizik ma`noda emas, balki shaxsning faolligi sifatida tushiniladi) (V.A. SHkuratov. Psixika. Kul`tura. Istorya. – Rostov - N/D, 1990, s. 41). Aql, tasavvur va hissiyotning quvvati hech qachon yo`qolmaydi. Bu quvvat o`zini harakatga keltirgan sub`ekt – ob`ekt mexanizmi saqlanar ekan, o`zini vujudga keltirgan madaniyat yashar ekan, ob`ektdan yangi insonlarning fikri va hissiyotlariga, keyin yana ob`ektga qayta – qayta

o`taveradi. Millat ongi va uning madaniyati ana shu qonuniyat asosida rivojlanib boraveradi. Insonning milliy o`zirga xosligi amaliy xatti – harakati xususiyatlarida, shaxsning ongi va o`zini – o`zi anglash sohasida namoyon bo`ladi. Milliy ongni tahlil etishda madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadigan va uning milliy o`ziga xosligini, tarixiy yo`lini ifodalaydigan madaniy boyliklar hamda qadriyatlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. O`zbekistonda milliy ongni mafkuraviy va nazariy yo`sinda tadqiq qilish bilan birga, keyingi paytda keng aholi ommasining xatti – harakatini tartibga soladigan hozirgi milliy ongni o`rganishga ham ko`proq ahamiyat berilmoqda. Bunda oila, mahalla, folʼklor guruqlar, xalq teatrлari, SHarq xalqlarining an`ana va urf – odatlariga muvofiq o`tkaziladigan marosimlar hamda boshqa turli tadbirlar kabi milliy ijtimoiy institutlar tadqiqotning ob`ektiga aylanmoqda.

O`rta Osiyo va Qozog`iston xalqlarining an`anaviy madaniyatida jamoa barcha hayotiy masalalarda hal qiluvchi rolъ o`ynagan. U oila tashkil topgan paytidan boshlab uning hayotini kuzatib borishi majburiy bo`lgan. Jamoa barcha tantanali bayramlarda va boshqa turli tadbirlarda boshchilik qilgan. Endilikda har bir alohida oila mustaqil mavqega ega bo`lsa–da, uning hayotiy funkciyasida hamon jamoatchilik tashkilotlarining roli kattadir. Xalqimizning bola tarbiyasiga g`amxo`rligini ifodalovchi “ Bir bolaga etti mahalla otalik qiladi” hikmati bejizga aytilmagan.

Diniy va tabiiy bayramlar aholining ijtimoiy hayotida muhim voqeа bo`lgan. Juma xafthaning bayram kuni hisablangan. An`anaviy bayramlarda ko`plab kishilar to`plangan, har xil ko`ngilochar tomoshalar, dorbozlik, qo`g`irchoqbozlik, kurash tushish, ot poygasi, ko`pkari (uloq) chopish, ko`chqor, bedana, xo`roz urishtirish, masxara-bozlik o`yinlari, qo`shiqchilar va musiqachilarning chiqishlari singari qiziqarli o`yinlar tashkil etilgan. Bemor va nogiron odamlarga rahimdillik ham millatning harakterli xususiyatidir. O`zbeklarda faqat qarindosh urug` va yaqin kishilarga emas, balki boshqa bemor, nogiron, kambag`al va mushkul ahavolda qolgan kishilarga ham qayg`udosh bo`lish an`anaviy ravishda rivojlangan. Bunda ularga har sohada yordam – madad berilgan.

O`zbeklar etnik ongingin katta yoshli, ilmi kishilarni hurmatlashdek muhim jihatini ham alohida ta`kidlash kerak. Milliy urug`lar o`rtasidagi o`zaro hurmat hamda o`zaro yordam qadimiylar an`ana-larning biridir. O`zbeklarning

Ioqorida ta`riflangan turmushi va madaniyati hozirgi kunda ham milliy o`zini – o`zi anglash va an`anaviy madaniyatning ommaviy ko`rinishlari sifatida davom etmoqda. Mana shular psixologik jihatdan kishilarga iftixor tuyg`usini rivoj-lantirgan, chinakam milliy xarakterni vujudga keltirgan va insonni ulug`lagan. An`anaviy marosimlar va bayramlarning har bir ishti-rokchisi o`zini biz millat deb ataydigan katta birlikdagi faol zarra ekanini his qilgan.

SHunday qilib, milliy madaniyat va turmush tarzi xalqning milliy ongi, milliy xarakteri va o`ziga xosligini belgilovchi asosiy mezonlardir.

## O`QITUVCHI MAS`ULIYATI

Istiqlol tufayli qadriyatlarimizga va o`tmishimizga yangicha nazar bilan qarala boshlandi. Dunyo madaniyati ixlosmandlari jahon xalqlari taraqqiyotiga ota – bobolarimiz qo`shgan beba ho ulushning nodir va o`ziga xos ekanligini tasdiqlab turibdi. Bunday ulkan meros dunyo xalqlarini azaldan o`ziga maftun etib kelgan. SHubhasiz, xazina faqat sandiqda saqlash uchun yig`ilmagani kabi bu ma`naviy mulkdan buroq kelajak uchun foydalanish ham muhim masalalardandir. Modomiki shunday ekan, ma`rifat elchilari hisoblanmish o`qituv-chilarining millat madaniyatining bosh targ`ibotchlari bo`lishi lozimligi shak – shubhasiz. Zero, kelajak poydevori maktablarda qo`yiladi. SHarqda “Ikkinchi muallim” nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiya ta`kidlaganidek, “Bir millat yoki qavmning axloq – odobi bilan chuqur va har tomonlama tanishgan kishilar boshqalarga ta`lim – tarbiya berishda ular uchun xos bo`lgan yo`l tutadilar va boshqa millatlarning turmushi, axloq – odobi bilan tanishishga havas uyg`otadilar. SHuning uchun xalqlarning ta`lim – tarbiyasini mana shu guruhlarning biriga mansub bo`lgan kishilarga topshirish kerak”.

Boy milliy merosimizdan kelajagimiz maqsadida samarali foydalanish yo`llarini aniqlash uchun Qarshi shahri, Yakkabog`, CHiroqchi, Kasbi tumanlarida faoliyat ko`rsatayotgan 500 dan ziyod adabiyot va tarix o`qituvchilari bilan tadqiqot o`tkazildi. Savollar milliy merosni o`qitishda qaysi yo`nalishlar ustuvor ekanligini aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalariga ko`ra ko`pchilik (94,4 foiz) – milliy urf – odatlar, an`analar, rasm – rusumlar, to`ylar, bayramlar, diniy marosimlarni millatning an`anaviy madaniyatini o`zlashtirishning eng ta`sirchan manbai, deb hisoblaydilar.

SHunisi e`tiborliki, an`anaviy milliy bayramlar, tarixiy sanalar, turli – tuman urf odatlar va diniy marosimlarni o`tkazishda katta avlod kishilari (qariyalar, oqsoqollar, mutaxassislar), yosh avlodga faqat tashqi jihatlarni – harakatlarnigina emas, balki iloji boricha muayyan an`analarning tarixi va ahamiyatini ham tushuntirib berishga harakat qiladilar. SHu bois tadqiqotda qatnashgan o`qituvchilar o`zbek xalqining tarixi – millat madaniyatini o`rganishni navbatdagi muhim manbai ekanligini (88,2 foiz) e`tirof etadilar.

O`qituvchilar javobida o`zbek xalqi an`anaviy madaniyatining yana bir muhim manbai – o`zbek mumtoz adabiyoti va xalq og`zaki ijodi ekanligi alohida qayd etiladi. (83,3 foiz).

O`zbek mumtoz musiqasi (63,8 foiz) ham millat madaniyatini o`rganishning muhim manbalaridan biri ekanligi e`tirof etiladi.

Tadqiqot natijalari va yangicha hayot tarzi qo`yayotgan vazifalardan kelib chiqib, o`qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishning muhim yo`nalishlarini jiddiy tahrir etish kerak bo`ladi. Buning uchun birinchi yo`nalish – madaniyatning barcha sohalarida o`ziga xoslikni saqlash haqida jiddiy qayg`urish lozim. Madaniy va me`moriy yodgorliklar tarixi, SHarqning mutafakkir olimlari asarlari, she`riyat va san`at durdonalarini o`rgatishga ham jiddiy ahamiyat berish muhim vazifadir.

Bolalar va o`quvchilarda o`zbek millatining o`ziga xos xislatlarini tarbiyalash orqali ularda o`zligini anglash tushunchasini shakllantirish kun tartibida turibdi. Negaki, jahon hamjamiyati doirasida millatimiz va xalqimiz faqat o`z qiyofasi bilangina ajralib turishi shart. Ma`lumki, totalitar tuzum sharoitida diniy e`tiqod qattiq qoralandi. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda endilikda o`qituvchilar uchun kishining diniy e`tiqodi va ishonchiga, shu jumladan, ilmiy dunyoqarashiga hurmat, sabr – toqatlilikni tarbiyalash ham kun tartibiga kiradi.

Albatta, bizning bu mulohazalarimiz ilmiy – uslubiy qullanmalar yaratishda va ta`lim – tarbiyaga milliy tus berish yo`nalishidagi izlanishlarda asqotadi, deb o`ylayman.

## TA`LIMDAGI MUHIM MUAMMOLAR

O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi e`lon qilingach, demokratik jamiyatni barpo etishning muhim omili hisoblangan umuminsoniy qadriyatlar va milliy an`analarga keng imkoniyatlar ochib berildi. Natijada mamlakatimizdagi murakkab ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan birga millatning o`ziga xos, betakror fazilatlarining asosi bo`lgan madaniy va tarixiy qadriyatlarni ham tiklashga astoydil kirishildi.

Aslida milliy madaniyatni, urf – odatlarni, qadriyatlarni tiklash jarayonida maorif tizimining tutgan o`rni beqiyosdir. SHunday ekan, avlodlar zanjirida bog`lovchi o`rin hisoblanmish o`qituvchini jiddiy o`rganish zaruratining vujudga kelishi tabiiy holdir. Ana shunday zaruratlar O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ va “Ta`lim to`g`risida“gi Qonunda ( 29 avgust 1997 yil )o`z ifodasini topdi. Jumladan, Prezidentimiz I.A. Karimov “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori“ mavzusida so`zlagan nutqida “Tarbiyachilarining o`ziga zamонавиј bilim berish, ularning ма`-lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo`lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta`lim - tarbiya tizimini o`zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda“ deb alohida uqtirib o`tadilar. Chunki o`qituvchi o`z millatining vakili bo`lish bilan birga ana shu millatdagi barcha xususiyatlarning sohibi hamdir. Xususan, u o`zining kasbiy faoliyati orqali millat madaniyatining bosh tarqatuvchisidir.

Biz tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga ko`ra dastlab o`qituvchining “Millat vujudga kelishi hamda rivojlanishining manbalari” to`g`risidagi bilim va tasavvurlarini o`rganishimiz lozim edi. O`rganish natijalari bizga o`qituvchilardagi o`zlarining umumiyl madaniyatlarini ifodalaydigan bilimlari haqidagi yaqqol tasavvurga ega bo`lishimiz uchun kerak edi.

Ana shu maqsadda o`zbek maktablarining 415 nafar o`qituvchisi tadqiqotlarga jalb etildi. O`rganilgan o`qituvchilarning 45 foizi kishilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar xarakterini, odamlarning fe`l – atvorini, fazilatlari va qadriyatlarni, aloqa tilini, ta`lim tizimini, fanni va hokazolarni o`z

ichiga olgan “ijtimoiy – madaniy muhit“ ni o`z millati vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy manbai ekanini aytdilar.

Ammo o`qituvchilarning yarmidan ko`pi ushbu manbaning etakchi ekanligini rad etdilar. Bu natijar bizga O`zekiston Respubli-kasidagi pedagogika oliy o`quv yortlarida metodologik ishlarning bo`sh olib borilayotganligidan darak beradi. Bo`lajak o`qituvchilarning kishilik jamiyatni rivojlanishining manbalari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida aniq tasavvurga ega emaslar. Aslida pedagogika oliy o`quv yortlarida o`rganiladigan barcha insonshunoslik fanlari insonga va jamiyatga izchil metodologik yondashish bilan o`qitilishi lozim.

O`qituvchilarning 37 foizi esa millatning vujudga kelishi va rivojlanishida“ jamiyatning tarixiy taraqqiyoti“ etakchi rol o`ynagan, deb javob beradilar. Bu bilan ular ob`ektiv xato qilmaydilar. Chunki o`qituvchilarning 82 foizi ko`rsatayotgan ana shu ikkita manbaning ma`nosi yaqindir.

O`qituvchilarning 13 foizi o`z millati vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy manbaini “Iqlimiyligi geografik sharoit bilan bog`liq biologik – tabiiy hayot“ deb tushunadilar. O`ylaymizki, ana shu o`qituvchilarning fikricha turli millat kishilarining tashqi qiyofasi bo`yicha bir – biriga o`xshamasligi jiddiy ta`sir ko`rsatgan. Darhaqiqat, tabiiy – geografik va iqlimiyligi sharoitlar terining rangiga, iozining tuzilishiga, ko`zlarga, burinning shakliga, tananing bichimiga ta`sir qilishi mumkin.

Lekin insonlar birligining vujudga kelishi va rivojlanishi haqida gap borganida biologik nuqtai nazarni olg`a surib bo`lmasa kerak. Binobarin, hatto, o`zbek etnosida ham terining rangi qora va oq, qiyg`och ko`z, malla sochli kishilarni uchratish mumkin. Bunday belgilarni yaxshisi kishidagi biologik imkoniyatlarning turli - tuman ta`sirlarga: atrof muhitning yoki turar joyning o`zgarishiga, urushga qonning aralashuviga va hokazolarga bog`lab tushuntirish mumkin.

O`qituvchilarning 5 foizi millat vujudga kelishi va rivoj-lanishining asosiy manbai “din” deb biladilar. Umuman aytganda, din – xalqning etnik ongidagi kuchli omildir. Ammo din millat vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy manbai ekanligini tasdiqlash mumkinmi? Agar bu fikrni to`g`ri deb tan olinsa, u holda islom ko`p asrlar mobaynida anchagina xalqlarning etakchi dini bo`lib kelganini qanday izohlash kerak? Ma`lumki, hozir jahon hamjamiyatining

130 ga yaqin mamlakatida yashayotgan 1 milliarddan ziyod musulmonlar va ular orasida yozdan ortiq etnik guruhlar, shu jumladan, o`zbek millati ham bor. Demak, o`z – uzidan ayonki 5 foiz o`qituvchilarning mazkur nuqtai nazari noto`g`ridir.

SHunday qilib, o`qituvchilarning millat vujudga kelishi va rivojlanishining manbalarini qanchalik bilishini va ular o`z xalqining farqli xususiyatlarini qanday tasavvur qilishlarini o`rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

O`zbek maktabi o`qituvchilarining ongida shakillangan o`zbek millati vujudga kelishi va rivojlanishining manbalari haqidagi bilim va tasavvurlari har doim ham to`g`ri metodologik yo`nalishga mos kelavermaydi. Umuman, o`z tarixiga munosabati jihatdan yaxshi yo`l tutgan o`qituvchilar millatning saqlanishi va ioksalishiga yordam beradigan muayyan omillarni etarlicha tahlil qila olmaydilar.

O`qituvchilardan 18 foizining millat vujudga kelishi va rivojlanishi haqidagi qarashlarini alohida qayta kurib chiqishga to`g`ri keladi.

O`qituvchilarning 45 foizi o`z millati vujudga kelishi va rivojlanishining manbalarini aniq hamda yaqqol tasavvur qiladilar.

Biz yuqorida o`rganilgan o`zbek maktabi o`qituvchilarida o`zbek xalqining an`anaviy madaniyatini qanday axborotli va amaliy man-balar orqali berish ma`qulligini aniqlash maqsadida ham tadqi-qotlar o`tkazdik.

Tadqiqot natijalariga ko`ra ko`pchilik o`qituvchilar ( 94, 4 foiz ) milliy urf – odatlar, an`analar, rasm – rusumlar, to`ylar bayramlar, diniy marosimlarni millatning an`anaviy madaniyatini o`zlashtirish-ning eng ta`sirchan manbai deb hisoblaydilar.

SHunisi e`tiborliki, an`anaviy milliy bayramlar, tarixiy sanalar, turli – tuman urf – odatlar va diniy marosimlarni o`tkazishda katta avlod kishilari (qariyalar, oqsoqollar, mutaxassislar) yosh avlodga faqat tashqi jihatlarni – harakatlarnigini emas, balki iloji boricha muayyan an`analarning tarixi va ahamiyatini ham tushuntirib berishga harakat qiladilar. SHu bois tadqiqotda qatnashgan o`qituvchilar o`zbek xalqining tarixi – millati madaniyatini o`rganishni navbatdagi muhim manbai ekanligini (88,2 foiz) e`tirof etadilar.

O`qituvchilar javobida o`zbek xalqi an`anaviy madaniyatining yana bir muhim manbai – o`zbek mumtoz adabiyoti va xalq og`zaki ijodi ekanligi alohida qayd etiladi (83,3 foiz).

O`zbek milliy amaliy san`ati namunalari (naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorlik, badiiy kashtachilik, badiiy kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, miniatura asarlari va boshq.) (74,6 foiz), o`zbek mumtoz musiqasi (63,8 foiz), shuningdek o`zbek milliy dehqonchiligi va chorvachiligi mehnati asoslarini o`rganish va unga bevosita ishtirok etish (58 foiz) millat madaniyatini o`rganishning muhim manbalaridan ekanligi e`tirof etiladi. Amaliy jihatdan o`zbek millatining xarakterli xususiyatlari asosan kishilarning an`anaviy urf – odatlar, rasm-rusumlar va diniy marosimlarni o`tkazishga jalb bo`lishi orqali amalga oshadi. Lekin o`qituvchilarning 93 foizi etnosning xarakterli xususiyatlari oilada shakllana boshlaydi, deb hisoblaydilar. Xusan oilada ota – onaga hurmat, etnik xulqning me`yor qoidalariga rioya qilishdek muhim xususiyatlar tarkib topadi va milliy o`z – o`zini anglash shakllanadi.

Millat an`anasida marhumlar xotirasini hurmatlash marosimlari va ularda ishtirok etish milliy xarakter shakl-lanishining yana bir muhim manbalaridan ekanligi qayd etiladi (90 foiz). SHu ma`noda o`zbeklarning: “Uzrli sabablar bo`lsa ham, to`yni qoldirib azaga bor“ degan maqoli mavjud. SHuning uchun bo`lsa kerakki, o`ziga xos diniy marosimlar va milliy madaniyat qo`shilib ketadigan, ya`ni xalqning o`ziga xosligi namoyon bo`ladigan to`y tantanalari uchinchi o`ringa qo`yiladi (86,4 foiz).

SHunisi qiziqki, o`qituvchilarning 84,2 foizi milliy va diniy bayramlarni etnos shakllanishining muhim manbalaridan biri, deb hisoblaydilar.

SHundan keyin o`zining ahamiyati buyicha quyidagi vosita va man- balar o`rin oldi:

5 - o`rinni – mehmonavozlik va atrofdagilar bilan o`zaro muno-sabat qoidalariga rioya qilinishi/80,2/;

6 - o`rinni – qarindosh – urug`lar, yaqin kishilar, qo`ni –qo`snilar va boshqalar bilan hamkorlik /76 foiz/;

7 - o`rinni – yolg`iz kishilarni, qariyalarni, bemorlarni va nogironlarni holidan xabar olish, ularga yordam berish /77 foiz/;

8 – o`rinni – kundalik jamoat ishlarida ishtiroki va uy – ro`zg`or xo`jaligidagi majburiyatlarini bajarish /71 foiz/;

SHuningdek, biz ta`limning millat madaniyatini saqlash va qayta tiklashdagi roli haqida o`qituvchilar qanday fikrda ekanligi bilan ham qiziqdik.

Agar ta`limni shartli ravishda o`qitish va tarbiyalashga ajratilsa, tabiiyki, o`qitishda jahon standartiga qarab ish tutish lozim. Lekin sof tarbiya haqida gap borganda uni milliy psixologiyani va millatning o`ziga xosligini hisobga olib tashkil etish shart. Bizningcha, o`qitish baynalminal, tarbiyalash esa o`z mohiyatiga ko`ra milliydir.

Ana shu maqsadda biz o`qituvchilarning o`zbek xalqi an`anaviy madaniyatini mustahkamlash va uni yanada takomillashtirish yo`llari haqidagi fikrlarini bilish zarur deb hisobladik.

O`qituvchilar o`zbek xalqining o`ziga xosligini saqlashning birinchi galdagi tadbirlari sifatida o`zbek etnosining milliy – hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi o`quv rejalar, dasturlari va didaktik materiallarni ishlab chiqishni /78 foiz/, xalq pedagogikasining yaxshi an`analariga tayanib maktabdagi ta`lim – tarbiya jarayonini qayta qurish lozimligini /66 foiz/ aytdilar.

SHundan so`ng o`z ahamiyati bo`yicha o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi muomala va o`zaro munosabatlarni milliylashtirish /56 foiz/, milliy maktab shaklining yangi ko`rinishini yaratish yoki o`quvchilar kiyinishini milliylashtirishga ko`proq e`tibor berish /46 foiz/, o`zbek maktabi binosi, sinf xonalari, maktab hovlisi, tajriba maydonchalari va ustaxonalarini qurish yoki qayta qurishda milliy xususiyatlarni hisobga olish /30 foiz/, mahalliy va oilaviy urf-odatlarda mustahkamlangan o`zbek millatiga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda o`quvchilarning kunlik va haftalik o`quv ish hajmini qisqartirish (30 foiz)ga doir takliflar bayon qilingan.

SHu tariqa biz o`quvchilarning o`zbek xalqi an`anaviy madaniyatini berishning manbalari tug`risidagi ayrim tasavvurlarni aniqlash, shuningdek ular bilan o`zbek milliy maktabini qurishning istiqbolli yo`llari haqida fikr yoritish imkoniyatiga ega bo`ldik.

Tadqiqotimiz asosida qo`lga kiritilgan va ilmiy asoslangan natijalar bilan shunga ishonch hosil qilamizki, oliy o`quv yortlarida /pedagogika institutlari va universitetlarida/o`qituvchi kadrlar tayyorlash usuli va mazmunini tubdan o`zgartirish lozim, toki mazkur oliy o`quv yortlarini bitirib, o`qituvchi degan ioksak nomga sazovor bo`lgan kishilar XXI asr o`qituvchisi oldiga qo`yiladigan talablarga munosib bo`lsin, eng muhim esa ishlab turgan o`qituvchilarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini butunlay yangidan tashkil etish asosida ularni milliy maktab o`qituvchisining barkamol qiyofasi sifatida belgilangan darajaga ko`tarish mumkin bo`lsin.

## **O`QUVCHILARDA O`Z MILLATIGA XOSLIKNING SHAKLLANGANLIGI**

O`zbekiston Respublikasining tub aholisida milliy tipik hulq qanday namoyon bo`lishi haqidagi fikrlarimizni, faqat kuzatishlar yordamida bayon qilish ham etarli bo`lur edi. Ammo, biz kuzatishlarimizni tasdiqlaydigan birmuncha ob`ktiv materiallarni to`plashimizga to`g`ri keldi.

Buning uchun biz quyidagicha yo`l tutdik, ya`ni o`zbek xalqi uchun xarakterli bo`lgan fazilatlarni o`qituvchilarda qanday shakllanganligi o`quvchilar tomonidan baholanishiga asoslandik.

O`qituvchilarga baholashning o`zlari odatlangan 5 balli tizimidan foydalananib o`quvchilarda o`zbek xalqining eng xarakterli xususiyatlari ko`rinishining darajasini baholash (eng yuqori ball 5 bo`lishi) tavsiya etildi.

Tadqiqotimizda millatning o`ziga xosligi – o`quvchilarning ota – onaga va oila a`zolariga munosabatida eng yaqqol ko`ringanligi qayd etildi (4,28 ball; 85,6 foiz).

SHuni ham e`tirof etish kerakki, o`zbek xalqi o`zining asrlar mobaynida tarkib topgan udumlarini mutaassiblarcha va ehtiyyotkorona saqlab kelgan. Oilaning xotirjamligida ijobiy rol o`ynaydigan hamma narsa qo`llab – quvvatlanadi va rivojlanadi. Bularga xususan oila a`zolarining o`zaro hurmati, an`analari, ko`p bolalik, tejamkorlik va hokazolar kiradi.

Umuman ijtimoiy institut sifatidagi o`zbek oilasi insoniyat tarixida o`ziga xos o`rin tutuvchi holdir.

Tadqiqotlarimizda qatnashgan o`qituvchilar o`kuvchilar o`zbek xalqining o`ziga xos xislatlarini tarbiyalashda o`zbek an`analariga rioya qilinishini (4,19 ball; 83,8 foiz) ikkinchi o`ringa qo`yadilar.

SHundan so`ng, o`qituvchilar diniy va milliy bayramlarning (Navro`z, Hayitlar, Mustaqillik bayrami, Hosil bayrami va boshqalar) o`quvchilarni

tarbiyalashdagi rolini юqori baholaydilar (4,07 ball; 81,4 foiz). O`zbek xalqi hayotidagi ana shu ijtimoiy voqealarni psixolgik tahlil qilishga bat afsil to`xtalib o`tirmay, faqat ularning xalq tomonidan e`zozlanishini va ijtimoiy pedagogik jihatdan katta ahamiyatini qayd etmoqchimiz.

SHuningdek, o`qituvchilar to`ylar o`tkazilishini ham millat tarbiyasida юqori o`ringa qo`yadilar (3,85 ball; 77 foiz). O`zbek bolalari juda kichikligidan boshlab jamoa bo`lib o`tkaziladigan barcha to`y tantanalarida qatnashadilar. SHunga ko`ra har qanday to`y etnosning hayotidan sezilarli o`rin oladi va uning o`ziga xosligining xarakterli xususiyatini tashkil qiladi. SHu Bilan birga u o`zbek xalqining eng yaxshi an`analarini berishning o`ziga xos madaniy texnologiyasi ham hisoblanadi.

Юqorida qayd qilganimizdek, o`zbek maktabi o`qituvchilari o`quvchilarning oilada tarbiyalanganligidan qoniqadilar (3,87 ball; 77,4 foiz). Buni kuzatishlarimiz tasdiqlaydi. Maktabda ham, jamoatchilik ishlarida ham milliy ruhda, oilaning an`analari ruhida tarbiyalangan o`zbek bolalari umumiy qabul qilingan ahloq me`yorlarini buzishga urinmaydilar.

O`quvchilar millatning farqli xususiyati sifatidagi mehmondo`stlikni ham yaxshi o`zlashtirganlar (3,81 ball; 76,2 foiz). Bizningcha bunda, юqorida bayon qilingan hamma omillar yordam beradi.

O`zbek xalqidagi o`ziga xos xislatlarning ko`pi yoshlarimizda o`rtacha darajada shakllanganligining guvohi bo`ldik.

Bunda gap millatning o`quvchilarda 3 balldan 3,7 ballgacha baholar darajasida ko`rinadigan xususiyatlari haqida borayotir. Bular: berilgan topshiriq uchun mas`uliyatni his etish (3,55 ball); nogiron va nochorlarga ahamiyat berish, bemorlarga ko`maklashish (3,46 ball;) jamoatchilik ishida qatnashish, yaqin kishilarga yordamlashish (3,44 ball); kichiklarga mehribonlik va g`amxo`rlik qilish (3,36 ball); kambag`al va yolg`iz kishilarga ko`mak berish, hamda hurmat – izzat ko`rsatish (3,24 ball) dan iboratdir.

O`quvchilarda o`rtacha darajada shakllangan millatning ushbu xususiyatlari o`zbek xalqining eng farqli o`ziga xosligini ifodalaydi. Bizningcha, ularni imkonи boricha rivojlantirish va mustahkamlash zarur.

Afsuski, o`qituvchilar o`quvchilarda millatning ayrim fazilatlari etarli darajada shakllanmaganini ham aniqladilar. Bunday fazilatlarga: notanish kishilarga yaxshilik qilish va yordam berishni (2,99 ball); davlat va jamiyat

mulkiga ehtiyotkorona munosabatni (2,47 ball); ijtimoiy tartibni va xulq qoidalarini buzish hollariga murosasizlikni (2,50 ball) kiritish mumkin.

O`ylaymizki, millatning ana shu xususiyatlari etarlicha shakllanmagani ularning ko`rinishlariga va umuman maktabda ham, oilada ham tarbiya ishiga yaxshi e`tibor berilmaganining oqibatidir.

Va, nihoyat, o`quvchilarning musulmonlarga xos urf – odatlar va marosimlarda qatnashuviga o`qituvchilar tomonidan qoniqarsiz baho (2,1 ball) qo`yildi. Islom dini zaminida vujudga kelgan, keyin milliy ong va madaniyatda mustahkamlanib, umuman millat madaniyatining bir qsmiga aylangan urf – odatlar va diniy marosimlar nazarda tutilishi lozim. Jamoatchilik insonning oljanobligi va vijdoniyligini ularga rioya qilinishiga qarab belgilaydi. Bunda vafot etganlarni ko`mish va keyingi shu bilan bog`liq marosimlar, ularni xotirasini yodlash, qurbanlik, xayr – ehson va shu kabi urf – odatlar hamda marosimlar nazarda tutiladi. Ammo, o`qituvchilar millatning xudi shu xususiyati uchun o`z o`quvchilariga qoniqarsiz baho qo`ydilar.

Biz qiziqqan ana shu muammolar Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Ta`lim to`g`risidagi qonun»ning ayni vaqtida qabul qilinganligi va ularni og`ishmay amalga oshirish esa oila, o`quv – tarbiya maskanlari va jamoatchilikning eng muhim vazifasi ekanligini yaqqol ko`rsatib turibdi.

## **OILA – TARBIYA O`CHOG`I**

Mustaqilligimiz sharofati bilan biz o`zligimizni anglay boshladik. Boy milliy – madaniy merosimizni o`rganish va undan hozirgi kun ta`lim – tarbiyasida samarali foydalanish maqsadida jahon ցivilizaցiyasiga salmoqli hissa qo`shgan ulug` ajdodlari-mizning ulkan ma`naviy merosiga murojaat etishga odatlanmoqdamiz.

Ma`lumki bola tarbiyasi oiladan boshlanadi. SHunga ko`ra, o`zbek oilalarida dastlab insonning ko`rki va ziynati hisoblangan o`zbek xalqiga xos /etnopsixologik/ bir qator noyob xislatlarga – rostgo`ylik, inoqlik, tantilik, vijdonlilik, mehmondo`stlik, ota – onalar va kattalarga hurmat, samimiylilik, o`z qadr – qimmatini saqlash, mehr oqibatli bo`lish, o`zaro yordam kabi yaxshi fazilatlarga havas, yomon illatlarga esa nafrat uyg`otib boriladi. Bu o`rinda, ayniqsa, bola tarbiyasi borasida ajdodlarimizdan meros bo`lib qolgan beba ho xulosalar, echimlar aks etgan bitmas – tunganmas xalq durdonalari – hikmat, maqol, rivoyat, ertak, afsona va dostonlarga murojaat etish, ulardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

SHu o`rinda oldinlari «eskilik sarqiti» sifatida mutlaqo man etilgan, ammo yomon muomala va munosabatdan saqlovchi, insonda go`zal xulqni shakllanishiga imkon yaratuvchi xalq hikmatlari /ijodi/dan birining ahamiyati haqida to`xtalib o`taylik. Bu hikmatdan nafaqat oila tarbiyasida, balki boshlang`ich sinflar o`quv – tarbiyasi jarayonida ham o`rinli foydalanish mumkin. Bu ta`limotga muvofiq, odam azolarining har biriga taalluqli vazifalar belgilab qo`yilgan. Mazkur tarbiyaviy jarayon tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi ongiga tez singishi e`tiborga olingan.

- Ey bandai mo`min, boshingda nima bor?
- Taqdiri karam.
- Peshonangda nima bor?
- Umrim va rizqim beruvchi qudratli kalom.
- Qoshingda nima bor?
- Mo`yi kamolot.
- Kipringda nima bor?
- Dalili ummat.
- Ko`zingda nima bor?
- SHarmu hayo va nuru gavhar.
- Labingda nima bor?
- Hazrat odamdan dalolat.
- Og`zingda nima bor?
- Kalimai shahodat.
- Umringda nima bor?
- Behishtdan ziyorat.

- Maqsadingda nima bor?
- Jannatdan shafoat.
- Fahmingda nima bor?
- Do`zaxdan azobat.
- Dilingda nima bor?
- Iymonu vassalomat.
- JOzingda nima bor?
- Duoю ijobat.
- Tirsagingda nima bor?
- CHashmai tahorat.
- Qo`lingda nima bor?
- Xayri saxovat.
- Belingda nima bor?
- Xizmati kamar.
- Oyog`ingda nima bor?
- Safari mozorot.

O`quvchi yoki murabbiy ushbu hikmatga tayanib, murg`ak vujudga o`zligini anglashida va jamiyat oldidagi burchini bajarishda o`z a`zolari va imkoniyatlaridan qanday va qay yo`sinda foydalanish, nimalarga amal qilish mumkin emasligini tarixiy va hayotiy misollar asosida tushuntirib berishadi.

Hikmatning ahamiyatini ochish maqsadida ularning ba`zi birlariga kengroq to`xtalamiz. Inson taqdiri nimalarga bog`liq? Inson umrini sermazmun o`tishini, uning iqtisodiy farovonligini /rizqini/ ta`minlaydigan qudratli kalom insonda qanday юзага keladi.

Ha, Zohiri olam ikki olamdan – olamu kubro / Ulug` yoki katta olam/ va Olamu Subro /kichik olam, ya`ni odam/ dan tuzilgan.Olamu Kubro butun voqelikni, shu jumladan olamu subroni ham o`z ichiga oladi. Olamu subro olamu Kubroda shakllanadi va uning eng oliy ne`mati va buюк kashfiyoti sanaladi. Olamu subro ya`ni odamning buюokligi shundaki, u katta olamdagи mavjud jamiki narsa va hodisalarni o`zida jamlay oladi, aks ettiradi. Uning yana bir oliy xususiyati shundaki, u o`z taqdirini /hayot yo`lini/ o`zi yaratadi, butun jamiyat taqdiri va hatto katta olam taqdiri ham unga bog`liq.

Ota – onalar, murabbiylar, o`qituvchilar va jamoatchilik umr har bir odamga bir marotaba berilishi, uning har bir daqiqasini bekorga o`tkazmaslik

zarurligini to`g`ri anglab, yoshlarni tarbiyalash jarayonida bu haqiqatni bolalar qalbiga singdirishi lozim. Farzandlar ham o`z umrini bekorga o`tkazmasdan, undan samarali foydalanib, ilm – hunar va yaxshilik o`rganishi, ezgulikka intilishi lozim.

Odam o`z a`zolari va ularning ahamiyati bilan mazmun – mohiyatga ega bo`ladi. Insondagi qosh, kiprik, ko`z va yo`z ifodalariga qarab, uning shaxs sifatida qanday shakllanganini yaxshi bilib olish mumkin. SHu sababli o`zbek xalqi qadimdan bu jihatlarga alohida e`tibor bilan qaragan. Odam yorish – turishda, oilada boshqalar bilan o`zaro munosabatda doimo samimiy, iltifotli, kishilar hurmatini o`rniga qo`yadigan, sharmu hayo va tabassum balqigan chehrasidan nur yog`ilib turadigan bo`lishini xohlaganlar va shunga amal qilganlar.

Duoю ijobat – insonlarga doimo yaxshilik istash, yaxshilikni ravo ko`rish, bu yo`lda ularga maslahat, yo`l – yo`riq ko`rsatish, o`rni kelganda yordam berish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. «Oltin olma, duo ol» deydi dono xalqimiz. Kishiga bildirilgan yaxshi niyat va istaklar, minnatdorchiliklar kishi ruhiyatini tog`day ko`tarib, g`ayrat - shijoatini jo`sht o`rdiradi, natijada qilingan ishdan qoniqish, mammunlik hissini tuyadi.

«Insonning qo`li gul» deydi dono xalqimiz. Moddiy va madaniy boyliklarning barchasi qo`lning «beminnat» xizmati tufayli buyod etiladi. Tabiatni o`zlashtirib, jamiyat ehtiyojlariga xizmat qildirish, olamshumul kashfiyotlar, yangiliklar yaratish, qurilish, obodonlashtirish, hasharlar, o`zaro yordamlar, xayr – ehsonlar bevosita qo`l yordamida amalga oshiriladi. Xayr – ehsonli bo`lishga intilish kishida odamiylik, rahimdillilik, g`amxo`rlik, mehr – oqibatlilik, saxiylik, ochiq ko`ngillilik, e`tiborlilik, shu bilan birga mehnatsevarlik, ijodkorlik, dadillik, qat`iylik kabi sifatlari rivojlanishiga olib keladi. YAlqovlik, ta`magirlik, sudxo`rlik, ochko`zlik, qizg`anchiqlik, ko`rolmaslik, bag`ritoshlik kabi yomon sifatlardan asraydi.

Kimki kalimai shahodatni dilda saqlab, tilda takrorlab yorsa, u iyomon – e`tiqodli, diyonatli, yoksak ahloq egasi hisoblanadi. U insonni doimo yomon so`zni aytishdan, yomon yo`lga kirishdan asraydi.

SHu tariqa odam a`zolari bilan bog`liq yaxshi ishlar, yorqin va ajoyib misollar o`zbek xalqi tajribasida, turmushida to`lib – toshib yotibdi. Ularni

tarbiyaviy ishda oqilona tanlash, bolalarga tushuntirib, muhim tomonlarini o`rni bilan tahlil qilish juda ahamiyatlidir.

O`tgan ajdodlarimiz yoshlarni tarbiyalashda shu qoidalarga amal qilishni o`zlarining asosiy burchi deb bilganlar va uning «mevalari»dan bahramand bo`lganlar. Hozirgi kunda ham oila, bog`cha va maktablardagi tarbiyaviy ishlarda o`zbek xalqining boy etnopsixologiyasidan samarali foydalanish va unga amal qilish maqsadga muvofiq bo`lar edi.

## AJDODLARIMIZ TAJRIBASI

Bolaning inson sifatida shakllanishi uning tevarak – atrofdagi hodisalar va voqealarning qaysi tomonini o`zlashtirishiga bog`liqdir.

Bu borada bolaga katta yoshli kishilarning ta`siri benihoya katta.

O`zbek xalqi qadim – qadimdan o`z farzandlarini rostgo`ylik, inoqlik, sadoqatilik, bir – biriga va o`zgalarga g`amxo`rlik, saxiylik, odoblilik, mehmonnavozlik ruhida tarbiyalashga alohida e`tibor berib kelgan. SHu o`rinda «eski maktab» larda kundalik takrorlanadigan tarbiyaviy jarayonlarning ayrim e`tiborli tomonlari haqida to`xtalib o`tishni lozim deb bildik.

Muallim har kuni saboq oldidan o`quvchilarni nazorat qilib, o`z so`zini shunday boshlagan:

Kecha kim gunoh ish qildi?

Xonada sukunat cho`kadi. Bolalardan biri ohista qo`l ko`taradi, domlaning ruxsati bilan javob beradi:

- Ahmad gunoh qildi. Biz bemor o`rtog`imizdan xabar oldik. U bormadi.

Boshqa bolalar ham o`z o`rtoqlarining gunohlarini beg`araz aytib beradilar:

- Ismoil kecha otasi ish buiorganda o`zini eshitmaganga oldi.
- Toshmuhammadning gunohi bor. Qo`shnisining bog`idan so`roqsiz olma uzib chiqdi.
- Xadicha buvi kecha Qodirga tanbeh berganda, u kishiga gap qaytardi.
- Kamol tovuqlar, qushlarni toshbo`ron qiladi.

... Saboqning boshlanmasidagi bu suhbat yosh bolalar uchun ibrat bo`ladi.

Bolalar tomonidan yo`l qo`yilgan ana shunday hatti – harakatlarni eshitgan muallim bu salbiy holatlarni o`kuvchilar jamoasida tahlil qiladi.

Oqibatlarni hayotiy misollar bilan tushuntiradi. O`rni bilan bolalarni gunohiga yarasha jazo qo`llaydi. Qadimda uyaltirish, ogohlantirish, ulardan hafa bo`lish yoki gohida «adab cho`pi» bilan jazolash kundalik odatga aylangan.

Bir bora tanbeh olgan bola ikkinchi bunday xatolikka yo`l qo`ymaslikka harakat qilgan. Muallim o`ziga xos tarbiyaviy soatni quyidagicha yakunlagan:

- Otang chaqirsa nima deysan?
- Labbay deyman.
- Onang chaqirsa nima deysan?
- Labbay deyman.
- O`zingdan kattalar yoki begona kishi chaqirsa nima deysan?
- Labbay deyman.
- Ular kim bo`lishidan qa`tiy nazar, biror yomush buorsa nima qilasan?
- Darrov boraman (bajaraman).

Bunday savol – javoblar bolalar uchun eng nodir insoniy fazilatlarni egallahsga chorlovchi vosita hisoblangan. Bunday sharoitda muallim xalq donishmandligining boshqa ko`rinishlaridan ham o`rinli foydalana olgan. Ayniqsa, xalqning ko`p asrlik hayotiy tajribalari asosida yozaga kelgan maqollar o`ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan.

Bolalar tomonidan yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklar, ularning noo`rin hatti – harakatlari va fe`l – atvori maqollar yordamida o`ziga xos baholangan: «Oltin erda qolsa ham, bilimli erda qolmas», «O`qish jafoli keti vafoli», «Aqli kalta pand eydi, aqli teran qand eydi», «Aytgan joyga erinma, aytmagan joyga ko`rinma», «Egri ko`chadan yorsang ham, to`g`ri yor», «Egri ozadi, to`g`ri o`zadi», «Mulla borida tilingni tiy, usta borida qo`lingni», «O`ynab gapirsang ham o`ylab gapir», «Otang ishga buorsa, namozingni buzib bajar», «Mehnatdan qo`rqma, minnatdan qo`rq», «Tekinning minnati ko`p, mehnatning ziynati», «Aql ko`pga etkazar, hunar - ko`kka», «Bilim davlatdan qimmat» kabilar.

Muallim tomonidan belgilangan ana shunday tarbiyaviy tadbirlar asosida bolalarda asta – sekin itoatkorlik, kattalarni hurmatlash, xo`shmuomalalik, kamtarlik tarkib topa boshlaydi, ular jamoatchilik mulkiga va narsalarga ehtiyyotkorona munosabatning dastlabki ko`nikmalarini o`zlashtiradilar. O`zaro

yordam, batar-tiblilik, g`amxo`rlik, o`rtoqlik, do`slik, rahmdillik, jamoatchilik intizomi va tartibiga rioya qilish singari axloqiy xatti – harakatlarni o`rganadilar.

Bolalarni tarbiyalash amaliyotida xalq donishmandligining barcha taraqqiyatparvar asoslaridan yanada kengroq foydalanish kerak. SHu orqali shaxsni kamol toptirish, uning ijodiy imkoniyatlarini ochish, unda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllan-tirish lozim. Bola tarbiyasida ajdodlarimizdan meros bo`lib qolgan xalq tajribalariga murojaat etish, hozirgi o`quv – tarbiya jarayonida undan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## **SAMARALI O`ZLASHTIRISHNING MUHIM OMILLARI**

Hozirgi maktab ta`limining bosh vazifasi o`quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o`zlashtirishni ta`minlashdir. o`zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo`lib, odamning bilishiga oid olamdagи xilma – xil noma`lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan no`malum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o`zlashtirish jarayoni, asosan, uchta yo`nalishga bog`liq bo`ladi. Birinchidan o`zlashtirilayotgan materialning mazmun mohiyati o`zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarligiga, ahamiyatliligiga va u qanday usulda etkazilayotganligiga bog`liqdir. Ikkinchidan, ta`lim jarayonini boshqarayotgan ma`sul kishining shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog`liqdir. Uchinchidan, o`quvchining aqliy taraqqiyoti darajasiga, emocijonal – irodaviy holatiga, o`qishga nisbatan qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslari bilan belgilanadi. Ana shu uchta yo`nalish to`la ta`minlangan ta`lim jarayonidagina samarali o`zlashtirish hosil bo`lishi allaqachonlar rivojlangan mamlakatlar fani tajribasida isbotlangan. shu bois mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq bu`ok ma`naviyatimizni tiklashga, milliy ta`lim – tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab zamon talablari bilan uygunlashtirish asosida jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonuniga binoan, ta`lim tizimida Davlat ta`lim standartlarining ishlab chiqilishi va uning tarkibiy qismi sifatida o`quv dasturi va darsliklarning tayyorlanishi hamda ularning amalda joriy etilishi ta`lim tizimini jahon andozalariga xos takomillashtirishning dastlabki bosqichi bo`ldi. Ayniqsa, bu sohada etakchi tilshunos olimlardan professor H.G. Ne`matov boshchiligida olib borilayotgan ishlar e`tiborga loyiqidir.

Jumladan umumta`lim maktablarida Davlat ta`lim standartlariga muvofiq tuzilgan ona tili o`quv dasturi va darsliklari «Ta`lim to`g`risida»gi qonunda va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan mezonlar va ilmiy tamoyillarga asoslangan holda tayyorlangan. Ona tili darsliklarining tuzilishi, undagi o`quv topshiriqlari materiallari hududiy va milliy xususiyatlardan kelib chiqib tayyorlangan. Ular o`quvchining turmush tarzi va kundalik hayoti bilan bog`langan narsa va hodisalar doirasidagi materiallar bo`lib, har bir yosh bosqichidagi o`quvchilarning psixologik rivojlanishi darajasiga muljallangan. Bu holat o`quvchilar o`zlashtirishida qiyinchilik tug`dirmaydi. Darslikdagi har bir mavzuga doir materiallar va topshiriqlar (mashqlar, bilim oling, esda tuting va boshqalar)ni tanlash va tuzishda mualliflar yoqorida sanab o`tilgan yo`nalishlar talabiga shu qadar yaqinlashganki, natijada har bir mavzuda samarali va ongli o`zlashtirishga erishish mumkin.

Har bir mavzuda tanlangan materiallar o`quvchiga tanish bo`lib, xarakterli tomoni shundaki, undagi topshiriq va mashqlar o`quvchini mustaqil fikrleshga, mavzu doirasida ijod qilishga, yangilik yaratishga undaydi. O`quvchidagi hissiy – idoraviy holatni kuchaytiradi, aqliy jarayonlar (diqqat, idrok, xayol, tafakkur)ni faollashtiradi. O`quvchilarda guyoki: «Topshiriqlar tanish – u, ularga javob topa olmasam, qanday bularkin?». «O`rtoqlarim qanday javob toparkin?», «Mening javobim qanday bularkin?», «SHunday javob topayki, atrofimdagilar qoyil qolsin, hattoki, o`qituvchim ham». «O`zim va o`rtoqlarimni nimaga qodirligimizni va kamchiligidimizni bilib olamiz» kabi muammoli vaziyat o`quvchini to`la cho`lg`ab oladi va uni ijodga, faol fikrleshga chorlaydi.

O`qituvchi esa ta`lim oluvchilardagi individual psixologik xususiyatlarning har xillagini e`tiborga olib, beradigan izlanish va fikrlesh yo`llanmasi bilan har bir ta`lim oluvchida o`zligini mumkin qadar yorqinroq namoyon etish

imkoniyatini yaratadi. Natijada o`quvchilarda ijodiy musobaqa ruhi har bir mashg`ulotda etakchilik qiladi.

Har bir mavzu yoki mavzu turkumlari shunday bir mantiqiy izchillikda tuzilgan bo`lib, o`rganuvchi mavzuni o`rganishni boshlasa, undan chiqa olmaydi. Mavzuni o`rganishni yakunlamay, boshqa ishga chalg`imaydi (o`tmaydi). Mavzu va undagi topshiriqlar hamda mashqlar 1,2 yoki 3 sahifani tashkil etadi, o`quvchi ana shu mavzuda soatlab, hatto kunlab ishlashi, ijod qilishi mumkin.

Hozirgi ona tili darsliklari psixologiya fani asoslagan qonuniyatlarga binoan qurilgan bo`lib, unda o`quvchilar uchun bilim egallash, mustaqil fikrlash imkoniyatlari cheksiz. SHu sababli, bu darsliklarning umri ham, shubhasiz, uzoqdir.

## **ONA TILI TA`LIMI JARAYONIDA IJODKOR SHAXSNI TARBIYALASH OMILLARI**

Jahon pedagogikasi va ta`lim psixologiyasi oldida XX asrning oxirlarida turgan muhim masalalardan biri nafaqat bilimli, balki ijodiy tafakkur sohibi bo`lgan shaxsni shakllantirish yo`l, usul va vositalarini izlash bo`ldi. Raqobatchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirdor, sharoitga ko`ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish yo`l, usul va vositalarni zudlik va oqillik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtoj edi. SHuning uchun G`arbda tarbiya tizimiga bixe-istoristik yondoshuvdan kognitiv yondoshuvga qarab siljish sezilarli bo`ldi. Inson faoliyatini baholashda kognitivizm (ing. cognitive – ta`limiy, o`rganilgan, o`zlashtirilgan) asrimizning 60 – yillarigacha pedagogika va psixologiyada hukmron bo`lgan bixe-istoristik yondoshuvdan quyidagicha farqlanadi:

- a) Bixe-istoristik yondoshuvda – inson xatti – harakatlari tashqi muhit ta`siri bilan belgilanadigan, ko`p hollarda ongsiz reaktsiyalar majmuasi sifatida tushunilsa;
- b) Kognitiv yondoshuvda bu xatti – harakatlarda onglilik, ta`lim asosida hosil qilingan malaka va ko`nikmalar ustunligi tan olinadi.

Ko`rinib turibdiki, bixevioristik yondoshuvda inson tarbiya sust, kognitiv yondoshuvda esa ular faoldir. Ma`lumki, bozor iqtisodiyotida yashash sharti insoniy faollikdir. SHuning uchun AQSH va G`arbda asrimizning 60 – yillaridayoq kognitivzm zudlik bilan pedagogika va didaktika tizimlariga kirib kela boshladi, o`sha davrda ancha ommalashgan ta`limning verbal (ya`ni kommunikativ muloqotda ta`lim oluvchining faolligi va o`zligini namoyon qilishga intilishi) usullari bilan birlashib, pedagogikada ongli verbal kognitiv ta`lim yo`nalishini shakllantiradi. IOqorida sanab o`tilgan:

1. kognitivlik,
2. verballik,
3. kashfiyotchilik,
4. onglilik

Hozirgi kunda ijodkor shaxs – ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik – psixologik omillari sanaladi.

Bu omillarning ta`lim tizimimizga kirib kelishi deb nimani tushunmoq lozim? Bularni ta`lim jarayonida voqelantirishning omillari, usullari juda ko`p va rang – barangdir. Ulardan asosiyлари sifatida, jumladan, quyidagilarni sanab o`tishimiz mumkin.

Birinchidan, har bir mashg`ulotda o`quvchi o`qituvchi (darslik) talabi asosida unga berilgan, etkazilgan bilimlarni takrorlashi emas, balki uning yo`llanmasi bilan yangi bilim hosil qilishi, kashf etishi lozim. Bu fikrlash yordamida bilishga intilishning bosh omilidir.

Ikkinchidan, darsda o`quvchi sust tinglovchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo`lishi kerak. SHuning uchun o`quvchi og`zidan chiqqan har bir so`z, fikr, hukm, bayon uning o`ziniki bo`lmog`i shart. Albatta, o`quvchidan tug`ilgan bu fikr olamshumil kashfiyot yoki biror chigal muammoning echimi emas, lekin o`qituvchi (darslik) bergen axborotning soddagina takrori ham emas. Bunday ta`lim usuli o`quvchida mustaqillik, mas`uliyat, o`z menligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda o`quvchi bilan tinglovchilar orasida dars jarayonidagi aloqa – munosabat juda ko`p hollarda jonli og`zaki muloqot, qolaversa, bahs tusini oladi.

Uchinchidan, o`qituvchining ta`lim oluvchiga beradigan izlanish va fikrlash yo`llanmasi shunday bo`lmog`i lozimki, sinfdagi o`quvchi-larning

izlanish va ijod mahsuli aynan bir xil bo`lmasligi – mohiyatan bir yo`nalishda bo`lib, lekin shaklan har xil bo`lmog`i kerak. SHundagina har bir ta`lim oluvchi o`zligini mumkin qadar yorqinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo`ladi va ularda musobaqa ruhi har bir mashg`ulotda etakchilik qiladi.

To`rtinchidan, dars jarayonida (uy vazifasini bajarish va uni sinfda tahlil etishda) o`quvchi o`qituvchi yo`llanmasi asosida izlanar, fikr qilar, biror narsani topar, biror hukmga kelar ekan u o`z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilmog`i zarur. Mashg`ulotning tashkil etishi va o`quv materiali bunga keng yo`l ochib bermog`i, bolaning yosh psixologiyasi va aqliy fiziologik imkoniyatiga mos bo`lmog`i zarur. Ta`limning onglilik omili mana shularda namoyon bo`ladi.

Yangi mazmundagi darsliklarning o`quv materiali va topshiriqlarining berilishida bosqichli ketma – ketlik ham, har bir mavzuni o`rganish jarayonida o`quvchining 10 turdagи aqliy faoliyatni rivojlantirish amaliyotining mavzudan mavzuga, sinfdan sinfga murakkablasha borish yo`llari ham, o`rganish jarayonining faol kuzatishdan boshlanib amaliy qo`llash bilan yakunlanishi ham ongli verbal kognitiv psixodidaktik asoslarga to`la mosdir. SHubhasizki, bunday ta`lim usulini amaliyotda izchil qo`llash, bu yo`nalishda tajriba orttirish unga juda ko`p tuzatish, to`ldirish va aniqliklar kiritadi. Lekin hozir ham uni mukammallashtirish, rivojlantirish, ommalashtirish bo`yicha ayrim mulohazalarni bayon etish mumkin. Ularni ikki katta guruhga ajratish lozim:

I. Darsliklardagi juz`iy tahriri kamchiliklarni – topshiriq, matnlar, mashqlardagi so`z – uslubiy g`alizliklarni, zudlik bilan bartaraf etish.

II. «Ona tili» mashg`ulotlarida ongli verbal kognitiv ta`lim usulini qo`llashni rivojlantirish va mukammallashtirish. Buning uchun, jumladan birinchi galadagi vazifalarimiz sifatida quyida-gilarni sanab o`tishimiz lozim ko`rinadi:

Birinchidan, verbal kognitiv ta`lim usuli (bugungi kunda ona tili ta`limining yangi pedagogik texnologiyasi)ni o`qituvchilar orasida keng ommalashtirish eng muhim vazifalarimizdan biri sanalishi lozim. CHunki usuldan, quroldan o`qituvchilarimiz amaliy foydalanishni o`rganib olmas ekanlar, ular uni samarali qo`llay olmaydilar.

Ikkinchidan, bu darsliklar va ta`lim usuli bilan mashg`ulotlarning samaradorligini oshirish uchun o`quvchilar qo`shimcha axborot manbalari bilan

ta`minlangan bo`lishlari shart, hozircha bu manbalar darslik, o`quvchining xotirasi, kundalik turmush tarzidan, boshqa o`quv fanlaridan, atrofdagilardan so`rab – surishtirib oladiganlaridan iborat. Bu albatta, etarli emas. O`qituvchilar ona tili boyliklarini va imkoniyatlarini o`zida mujassamlashtirgan va ularni o`quvchilarga etkaza oladigan qomusiy ma`lumotnoma, turli xildagi (izohli, uyadosh so`zlar, ma`nodosh so`zlar, zid ma`noli so`zlar, tarixiy so`zlar, YAngi so`zlar, tasviriy iboralar, iboralar, turg`un birikmalar, ma`noviy darajalanish, olinma so`zlar, ters a,h) lug`atlar bilan ta`minlangan bo`lishlari shart. SHunda darsliklarning hozirgi hajmi keskin qisqarib, ular, asosan, har bir mavzuni o`rganish (har bir mavzu doirasida ijodiy fikrlash va nimanidir yaratish) topshiriqlari algoritmidan iborat bo`lar edi. Albatta, bu juda katta ish. Lekin biz verbal kognitiv ta`lim usuliga qadam qo`yib, ijodkor shaxs tarbiyasini o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydikim, buni amalga oshirmasdan ilojimiz yo`q. Bularsiz ko`zlagan maqsadimizga erisha olmaysiz!

Uchinchidan, hozirgi darsliklarda «orqaga qarash» - dastlab oldingi ilmiy – lingvistik talqinlarga tayanish va so`ngra ularni inkor etish yoki yangilash me`yordan ortiqdir. Bunday hollar so`z turkumlari va qo`shimchalar, gap bo`laklari, tasniflarida, gap qurilishi talqinida anchaginadir. Bunday hol ehtimol, o`tish davri darsliklari uchun zarurdir, lekin psixologik va didaktik nuqtai – nazarlardan ularni oqlab bo`lmaydi. SHuning uchun bunday chekinishlar darsliklardan bosqichma – bosqich chiqarilishi lozim. Buning uchun boshlang`ich sinflar dasturlari va darsliklarini qayta ko`rib chiqish lozimdek ko`rinadi. CHunki dasturda ko`rsatilgan boshlang`ich ta`limdan olinadigan tayanch bilimlardan ko`ra boshlang`ich ta`limda beriladigan grammatik bilimlar ancha ko`pdir. Umuman olganda, sxolastik grammatik bilimlar miqdori boshlang`ich ta`limda ham, V – IX sinflarda ham mumkin qadar cheklanish lozim. Bunda bosh omil sof pragmatik – dasturda ko`rsatilgandek – ommaviy amaliy tatbiqqa nozarur ilmiy bilimlar UO`T uchun ortiqchadir.

To`rtinchidan, darsliklarda har bir mavzu o`rganilishini yakunlaydigan va mohiyati o`quvchining mustaqil xulosasini tekshirish uchun xizmat qiladigan, «bilib oling» izohi bilan berilgan sharhlarni keltirish shartmikan?! Hozirgi holatda o`quvchi uni o`ylab topishdan ko`ra tayyorginasini o`qib oladi! Mohiyatan bu «bilib oling»lar matematikaga, fizika, ximiya fanlari bo`yicha beriladigan misol va masalalarning javob va echimlaridir. SHuning uchun bular

ham o`ta ixchamlashtirib, darslikning oxirida berilsa, bolalarni mustaqil izlashga ko`proq undagan bo`lmasmidik?

Beshinchidan, darsliklarda, xususan, takrorlash bo`limlarida testlar berilgan. Bu testlar esa kognitivlik va verballikdan tamoman uzoq, retroskopik va receptiv tabiatga ega. Bu testlarni ijodiylashtirish ustida o`ylash va izlanish lozim. Buning uchun, ehtimol, darsliklarda qisman o`z aksini topgan o`zimizning eski, sharqona testlarimiz yoki «Topqirlar bellashuvi» uchun zarur bo`lgan savol – topshiriqlar miqdorini oshirish zarurdir.

Oltinchidan, «Ona tili» mashg`ulotlarida o`quv materiali «Muqaddima» «Izchil kurs» kabi ikki bo`limga ajratilar ekan, «Izchil kurs»ni yana lingvistik – grammatik tizim va yo`nalishda tuzish shartmikan? Endi katta jur`at bilan to`la – to`kis mavzuviy – muammoli yo`nalishga, ya`ni ma`lum bir mavzu doirasida tilimizning barcha ifoda va tasvir vositalarini hamkorlikda, bog`lanishda o`rganishga o`tish payti kelmadimikan?

Bular va bu kabi fundamental yangiliklar, albatta, keljakning ishlari.

## **TA`LIM SAMARADORLIGINI TA`MINLOVCHI ZARUR MILLIY – MADANIY OMILLAR**

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta`limning milliy yo`naltirilganligiga ta`limning milliy tarix, xalq an`analari va urf – odatlari bilan uzviy uyg`unlashuviga, O`zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitishga, shuningdek, ta`lim milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo`lishiga e`tibor berilgan.

SHu maqsadda olib borilgan tadqiqotlarimizda biz milliy – psixologik va milliy – madaniy omillarning o`qituvchi shaxsida va faoliyatida yanada ko`proq namoyon bo`lishini o`rganish kerak degan xulosaga keldik.

Ilgari amalga oshirgan tadqiqotlarning iotuqlari va ahamiyatini kamsitmay, shuni qayd qilmoqchimizki, har bir hududda muayyan yashash muhitining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va hududiy – milliy xususiyatlari hisobga olinib, o`qituvchining shaxsi va faoliyatiga doir zarur materiallar batafsil ishlab chiqilishi lozim. Bunda albatta millatning urf – odatlari, an`analari,

marosimlari, xati –harakat me`yorlari va odatlari to`la nazarda tutilishi lozim. Aks holda o`qituvchining shaxsi va faoliyatini psixologik – pedagogik tatqiq qilish amalda qo`llanayotgan ilmiy ma`lumotlarni yozib chiqishdangina iborat bo`lib qolaveradi.

Ma`lumki, har qanday fan xalqning odatdagi ongidan boshlanadi va yana shunga qaytadi. Ana shu ma`noda biz ta`limdagi, o`qituvchining shaxsi va faoliyatidagi ijtimoiy – madaniy hamda milliy – tipik xususiyatlarni tadqiq qilishimiz psixologik – pedagogik fanlarda ana shu yo`sindagi dastlabki harakatlardan biri hisoblanadi.

Xususan, ta`limdagi milliy omil muammolari juda kam tadqiqotlar uchun mavzu bo`lgan. SHu sababli biz chinakam milliy ta`limni ilmiy asosda hayotga samarali tadbiq etish va pedagogik kadrlar tayyorlash uchun nima qilish kerakligi haqida ba`zi fikr va mulohazalarga ega bo`ldik. O`zbek maktabi o`qituvchilarida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko`ra:

1. O`qituvchilarning ko`pchiligi ya`ni 94,4% i milliy ong, milliy xarakterda va millat turmushini chuqur aks ettiruvchi urf – odatlarda, an`analarda va diniy marosimlarda mustahkamlangan sterotiiplar etnosni shakillantiradigan eng asosiy manba ekanligini tan oladilar. Haqiqiy mavjud ijtimoiy – madaniy muhit O`zbekiston aholisining jumladan, o`qituvchilarning milliy ongning shakillanishiga ma`lum darajada yordam beradi.

Aholining o`z millatining milliy – madaniy, milliy-psixologik, xususiyatlari to`g`risidagi an`analari, urf – odatlari va rasm – rusumlariga doir bilimlari o`qituvchilarning baholashiga ko`ra, etarli darajada emas. SHu bois o`quvchilarda ham bunday bilimlarning shakllanish darajasi belgilanganidan biroz past ekanligi qayd etilgan.

2.O`qituvchilarning 90% i xususan ijtimoiy madaniy muhit, oila va mакtab kabi eng asosiy ijtimoiy idoralar, interiorizaциyaning (sub`ekt o`zlashtirishi) ob`ekti ekanini tan oladilar.

Oila, mакtab va mahalla mazkur tarixiy davrda millatning madaniyati qayta tiklanadigan asosiy ijtimoiy institatlardan biridir. Ammo o`qituvchilarning fikricha, xususan oila va mакtab o`zbek millatining keljak avlodini shakillantirish mas`uliyatini o`z zimmasiga olishi kerak.

3.O`qituvchilarning 90% i milliy – madaniyat va milliy – psixologiyani ona tili, adabiyot va o`z xalqining tarixini chuqur o`rgatish vositasida shakllantirish

mumkin deb o`yaydilar. 86,4% o`qituvchilar esa milliy madaniyat va milliy – psixologiyaning shakllanishida kishilarning an`anaviy urf – odatlar, rasm – rusumlar, diniy marosimlar va bayramlarni tashkil qilish va o`tkazishda bevosita ishtiroki bilan bog`liqligini e`tirof etadilar.

4.O`qituvchilar bolalarni o`zbek milliy adabiyotiga, xalq og`zaki ijodiga, an`anaviy xalq hunarmandchiligidagi, o`zbek mumtoz musiqasiga, o`zbek milliy urf – odatlari va an`analariga jalb etishni o`zbek xalq an`anaviy madaniyatini qayta tiklashning muhim yo`llaridan biri deb biladilar.

SHunday qilib, ijtimoiy–madaniy muxit va madaniy texnologiyalar o`zbek etnosining, shu jumladan o`kituvchining milliy ongi va uning milliy o`ziga xosligini shakllanishiga ta`sir etuvchi eng muhim omillar ekanligini qayd etish lozim.

## **O`QITUVCHI ETNIK SIFATLARI HAQIDAGI O`QUVCHILAR FIKRLARINI PSIXOLOGIK BAHOLANISHI**

Keyingi yillarda o`qituvchi shaxsini har tomonlama o`rganish, uning o`ziga xos fazilatlari va hislatlarining shakllanishi bilan bog`liq shart – sharoitlar va omillarni tadqiq etish psixologiya fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Bu o`rinda o`qituvchi va o`quvchining hissiy – qadriyatli munosabatlari xulq – atvor harakatlarida o`z aksini topadigan o`qituvchining milliy – ma`naviy qiyofasi haqida gapirish o`rinlidir.

№ Milliy – madaniy an`analar bo`yicha o`qituvchilarning bilim, malaka va mahoratlarini baholash parametrlari	O`quvchilar-ning sifatlarni baholashi
--	---------------------------------------

1	Milliy urf – odatlarni, rasm – rusum-larni, an`analarni va diniy marosimlarni nazariy jihatdan bilishi	4,0
2	Milliy xarakterdagи an`analarga va diniy marosimlarga shaxsan qatnashishi	3,4
3	O`z xalqining tarixi, madaniyati va urf – odatlari aks etgan manbalardan mashg`ulot-larda foydalanish	3,5
4	O`zbek xalqining buiok olim va mutafak-kirlarini o`quvchilar orasida targ`ib qi-lishi	3,5
5	O`zligini anglashi va milliy psixologiyani namoyon bo`lishi (xushmuomalalik, mehmon-do`stlik, sabr – toqatlilik, qanoatlilik, mehr – muruvvatlilik, har bir ish yoki hara-katda o`ylab bir qarorga kelishlik, sinchkovlik va boshqalar)	4,3
	O`rtacha baho	3,74

O`qituvchining o`zini – o`zi baholashi bilan uning «meni» o`quvchilar tomonidan baholanishini qiyoslash ular o`rtasidagi munosabatlarning haqiqiy holatini bildiradi. Bundan tashqari ba`zi hollarda o`quvchilarning o`qituvchi haqidagi fikri yoki bahosi muallimning o`z amaliy faoliyatini tuzatishga majbur etadi.

O`quvchilar tomonidan o`qituvchining o`zbek xalqi milliy – madaniy an`analarini bilishi va ularni hayotga joriy etishining baholanishi 5 ballgacha ( $p=100$ ) belgilanadi.

Umuman olganda, o`qituvchilarning milliy – madaniy xususiyat-larini o`kuvchilar tomonidan baholanishi bir oz юqori bo`lsa – da (o`rtacha ball. 3,75) ular o`qituvchilarning o`zini – o`zi va hamkasblari tomonidan baholashlariga (o`rtacha 3,63 ball) yaqin turadi. O`ylaymizki, ularda o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida kognitiv (bilish) kelishuv mavjud.

Biroq o`qituvchilardagi ayrim milliy – madaniy xususiyatlarni o`quvchilar tomonidan past baholanishi, bir tomondan ularni ko`proq namoyon qilish zarurligi haqidagi istaklarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, u o`qituvchilarni o`quvchilar bilan bo`ladigan hissiy – qadriyatli va xulq – atvor harakatlari bilan

bog`liq munosabatlarini hozirgi kun talabi darajasida tuzatish uchu nasos bo`lishi mumkin.

O`ylaymizki, o`qituvchi shaxsida aniqlangan etnomadaniy va etnopsixologik xususiyatlar namoyon bo`lishiga ko`ra o`qituvchining ijtimoiy tipik xulq – atvorida ham, kasb – kor faoliyatida ham o`z aksini topadi.

## **XALQ SIYOMOSI AKS ETGAN MANBA**

Kishilik jamiyatni boshlanibdiki, odamlar yashash uchun o`z hayot yo`llarida uchraydigan turli-tuman muammolar bilan kurashib ularni echish yo`llarini qidirib topadilar va ularni o`z ehtiyojlariga moslaydilar. SHu yo`sinda orttirilgan muayyan tajribalarni hayotda sinab ko`rib, ularni yanada mukammallashtiradi va o`z avlodlariga ham o`rgatib ularni tarbiyalab borishadi.

Hayot shu tarzda davom etaveradi. Atrof muhitda yo`z beradigan o`zgarishlar insoniyat oldiga yana yangidan – yangi muammolarni yo`zaga keltiraveradi. Insoniyatga esa yana o`sha tajribalar asqotadi.

Darhaqiqat, o`zbek xalqi tomonidan erishilgan barcha ma`naviy boylik va amaliy tajribalar xalq donishmandligi sifatida shu elning tarixida, badiiy adabiyoti va xalq og`zaki ijodida, amaliy san`ati namunalarida, uning urfatatlari, qadriyatlarida, shuningdek boshqa mehnat faoliyatida ham aks etgan.

Xalq donishmandligi namunalari ichida ayniqsa, maqollarning ahamiyati beqiyosdir. Maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo`lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma`naviy qiyofasi, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo`lgan munosabati to`liq ifodasini topgan. Zero taniqli rus yozuvchisi L. N. Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqinligi haqida to`xtalib: «Har bir ma`qolda men shu maqolni yaratgan xalqning siyemosini ko`raman», deb yozgan edi.

Maqollar xalqning ko`p asrlik hayotiy tajribalari asosida yo`zaga kelganligi sababli o`ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o`zida hayotning g`oyat xilma-xil tomonlarini mujassamlashtirgan bo`lib, avvalo turmushning axloqiy jihatlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar doimo юksak axloqiyligi va olijanobligi bilan ajralib turgan. «Tinchlik va xotirjamlikni bersin» degan ibora xalqimizning azaldan tinchliksevar ekanligini ifodalovchi dalildir. Vatanga sodiqlik, xalqqa muhabbat, qahramonlik, kamtarlik, haqgo`ylik, samimiylit, halollik kabi юksak axloqiy fazilatlar ham bizda doimo qadrlangan. Zero, quyidagi xalq maqollari bekorga tug`ilmagan: «O`zga юртда shoh bo`lguncha, o`z юрtingda gado bo`l»; «Юртдан ketgan юртмонда, o`tar hasrat armonda», «El seni aqilli desa, sen eldan aql o`рган»; «Otang ishga bujorsa, nomozingni buzib et (bajar)»; «Og`zing to`la qon bo`lsa ham, dushman oldida tupurma»; «Orqangdan gapirgan do`s emas»; «Dindan chiqsang ham, eldan chiqma»; «Kelmaganning ketidan borma»; «So`zing qaytar joydan o`zing qayt».

Xalqning axloqiy fazilatlari hasadgo`ylik, xudbinlik, qo`rroqqlik, mahmadanalik, yalqovlik, maqtanchoqlik singari salbiy odatlarni keskin qoralash orqali ham tarbiyalangan. «Siringni sirtga chiqarma»; «Yomon odam yovdan qochar, nomard odam siring ochar»; «Qozilashgan qarindosh bo`lmas»; «Mehnatdan qo`rqmay, minnatdan qo`rq»; «Ahmoqdan so`rama, o`zi aytar»; «Amal tegsa nodonga, o`zin urar har yonga»; «Nodon so`zlar, dono ibrat olar»; «Insofsizga erk bersang, elni talar» kabi maqollarda turli illatlarga nisbatan nafrat hissi ifodalangan.

Ma`lumki milliy o`ziga xoslikning millat xarakterida mustahkamlangan turli xususiyatlari ham maqollarda o`z ifodasini topgan. Masalan: «Sabrning tagi-sariq oltin»; «Quida bo`lguncha ko`p sinash, quida bo`lgach ko`p siylash»; «Oltin erda qolsa ham, bilimli erda qolmas»; «Mehmon oz o`tirsa ham ko`p sinaydi»; «O`ynab gapirsang ham, o`ylab gapir»; «Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar»; «Bilagidan ko`ra юрагига qara», deyiladi xalq maqollarida.

Xalqimiz hayotida jumboq va muammolarni hal qilishda kengashib, bamaslahat ish юritish chuqur singib ketgan. «Ot olsang, uying Bilan kengash, Xotin olsang, urug`ing bilan kengash»; «Onasi maqtagan qizni olma, El maqtagan qizdan qolma»; «Kengashli to`y tarqamas»; «Birni ko`rib, fikr qil, birni ko`rib, shukur qil» kabi maqollar shular jumlasidandir. Kengashli joyda ahillik, o`zaro hurmat, bir-biroviga bo`lgan mehr-muhabbat rivojlangan.

Ko`chalar ravon, uylar ko`rkam, bog`lar so`lim, marosimlar chiroyli va kamchiqim bo`lgan. Xullas, kengashli joyda taraqqiyot va ezgulik rivoj topgan.

SHuni qayd etish kerakki, xalq og`zaki ijodida, xususan maqollarda oilaviy muhitga ham keng e`tibor berilgan. O`zbek oilalari an`anaviy ravishda ko`p bolali bo`lgan va ularda, albatta o`z farzandlariga dastlabki axloqiy malakalarni singdirishga harakat qilgan. Farzandlar esa ota-onalarining tarbiyaviy ta`siri ostida kichikligidanoq yaxshi va yomon xatti-harakatlarning farqini to`g`ri anglay boshlagan.

Har bir inson fe`l-atvorida o`z millatiga xos xislatlar, xatti-harakatlar mavjud. Ana shu fe`l-atvor xalqning xususan ota-onaning ta`siri tufayli shakllanib boradi.

O`yinlarda va qo`llaridan keladigan mehnatda o`zaro yordam, jamoatchilikka bo`ysunish, hayot faoliyatlari davomida batartiblilik, g`amxo`rlik, do`stlik, rahimdillik singari axloqiy fazilatlarni o`zlashtiradilar. Kattaroq yoshdagi o`smirlarda siyosiy ong, ijtimoiy faollik rivojlanadi. Ular jasurlik, mustaqillik, qat`iyatlilikdek axloqiy sifatlarni юksak qadrlab uni egallahsga tirishadilar, shu bois pedagoglarning eng muhim vazifasi bolalarni tarbiyalash amaliyotida xalq donishmandligining barcha asoslardan yanada muvaffaqiyatliroq foydalanish va shu orqali shaxsni kamol toptirish, uning ijodiy imkoniyatlarini ochishdan iboratdir.

IQoroda keltirilgan o`zbek maqollarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy sharoitlari, kishilarning jamiyatga, mehnatga bo`lgan munosabatlari ifodalangan. O`zbek xalq donishmandligida tarix va iqtisodiyot, turmush va huquq normalari, urf-odatlari, e`tiqodi, umuman millatning butun hayoti aks etgan.

Ishonchimiz komilki, maqollar xalqning nodir ma`naviy boyligi bo`lib, milliylikni saqlashga, o`z-o`zini anglashga da`vat etuvchi asosiy omillardir.Ularning ma`rifiy va tarbiyaviy qimmati buюok. Zero uni hech bir moddiy boylik bilan o`lchab ham, yaratib ham bo`lmaydi.

## **TILNING ALOQA VOSITASI SIFATLARI**

Abu Nasr Farobiyning (873-950) ta`kidlashicha, kishilarning dastlabki etnik guruhlarining shakillinishida til hal qiluvchi rolъ o`ynagan. Birlashish

uchun kishilar bir hududda qo`shni bo`lib yashashi, bitta tilda gaplashishi kerak edi. SHuning uchun ham til va hududning birligi odamlar tirikchiligining asosiy sharti va tabiiy zarurati bo`lib, ayni paytda etnos (millat)ning shakllanishi va rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblangan.<sup>1</sup>

Turmush tarzi va etnosning o`ziga xosligi sababli u yoki bu til mavjud narsalarni ifodalashga moslashgan. Agar mazkur soha millatning turmush tarzida mavjud bo`lmasa, u tilda ham ifodalanmagan.

Turli milliy tillarda fikrni tegishli tarzda ifodalashga turlicha talablar qo`yilgan. SHuning uchun ham boshqa-boshqa tillarda so`zlashadigan kishilar bir-birlari bilan aloqa qila olmaganlar va birgalikdagi harakatning amalga oshirilishi amri mahol bo`lgan. Tildagi axborot ayrboshlash vositasi sifatida qo`llaniladigan belgilar, jumladan, so`z, imo-ishora, ieroglyph va hokazolar zamiridagi mohiyat munosabatda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo`lgan taqdirdagina axborot ayrboshlash mumkin bo`ladi. Mohiyat belgining tevarak-atrofdagi voqelikni ifoda etadigan qismi sifatidagi mazmunga ega bo`lgan jihatdir. Belgilar insonning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi. Jumladan, so`zlar voqelikdagi muayyan bir narsa yoki hodisaning mohiyatini ifoda etadi. Odam u yoki bu so`zni ishlatganda uning o`zi ham, uni tinglayotgan kishilar ham ayni bir narsa yoki hodisani nazarda tutishi kerak, aks holda anglashilmovchilik ro`y beradi.

So`zlar-belgilar tizimi sifatida hayot mazmunini, ijtimoiy-tarixiy tajribani o`zlashtirish va uzatish vositasi bo`lib, tilni tarkib toptiradi. Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in`ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etmasligi bilan doimiy ravishda to`ldirilib turadi va natijada fikr ayrboshlash yoki axborot almashish jarayoni ro`y beradi.

Ana shu tarzda nutq yordamida aloqaga kirishish orqali mohiyatlar sistemasi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Beruniy ta`biri bilan aytganda, «... Qadimgi odamlarda turli xohishlarini ifodalash uchun zarur bo`lgan so`z va iboralarga ehtiyoj tug`ilgan. Zamonlar o`tishi bilan so`z va iboralar ko`payib, yodda saqlangan va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan»<sup>2</sup>. Til yordamida odamlarning o`zaro munosabatga kirishish jarayonining, ya`ni nutqning yozagaga kelishi kishilik jamiyatni taraqqiyoti tarixida sifat burilishi bo`lgan.

YOzma nutq og`zaki nutqdan keyin shakllangan. U bir-biridan makon va zamon bilan ajralib turuvchi odamlar o`rtasida munosabat qilish ehtiyojining natijasi sifatida paydo bo`lgan va kishilar fikri<sup>1</sup>.

---

M.Xayrullaev. Farobiy va uning falsafiy risolalari.- T., 1963. – 261-bet.

shartli sxematik suratlar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlangan.<sup>3</sup> YOzuv tufayli odamlar to`plangan tajribani avloddan-avlodga etkazish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Insonga xos psixik jarayonlar va psixologik xususiyatlar kabi, nutqni egallahash va undan foydalanish mahorati ham odamni tug`ilganidan so`ng faqat ijtimoiy muhitda, odamlar bilan bo`ladigan o`zaro muloqotlar jarayonida, mashaqqatli ta`lim-tarbiyaning ta`siri ostida shakllanib rivoj topadigan murakkab aqliy faoliyatdir.

Nutqni egallahash va undan foydalanish jarayonida shakllanadigan nutq mahorati esa bir qator nerv-fiziologik va psixologik qonuniyatlarga muvofiq ro`y beradi. Nutqdan foydalanish mahorati shaxsning nafaqat so`z boyligiga, balki ushbu so`z boyligidan foydalana olish uslubiga, odobiga, malaka va mahoratiga ham bog`liqdir. Bular, o`z navbatida, shaxsning psixik jarayonlari: sezgilar, idrok, xotira, tafakkur, xayol; emoqional-irodaviy tomonlari: his-tuyg`u, iroda va har bir shaxsda mustahkam qaror topgan individual psixologik xususiyatlar: fe`l-atvor xislatlari, temperament turlari va qobiliyatlarning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Nutqni tinglay olish, shunga binoan fikr yoritish va so`z tanlab, fikrni ifodalash, suhbатdoshning kimligini hisobga olish, nutq ohangini tanlash, qisqa, to`la, aniq va asosli gapirish, gavdani, gavda harakatlarini va юz ifodasini nutqqa moslash, o`rnida Kulish yoki xafa bo`lish, o`zining his-hayajonlarini ifodalovchi vositalarni me`yorida qo`llash va ulardan o`rinli foydalanish shaxsdagi mavjud psixologik imkoniyatlarga asoslangan holda юz beradi. SHu bois bolalarga so`zlashish qoidalarini tushuntirishda va o`rgatishda, ularda nutqiy ko`nikmalarni shakillantirishda oilada ota-onalar, bog`chada murabbiylar, o`quv maskanlarida esa o`qituvchilar юqoridagilarga alohida e`tibor bilan qarashlari lozim.

Xulosa qilib shuni ayotish mumkunki, til etnosining eng muhim belgisi va u etnos madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Tafakkur bilan bevosa bog`liq bo`lgan til o`zining tuzilishi jihatidan murakkabligi tufayli ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida hamgavdalanadi. Keng ma`noda esa psixikaning belgililigi uning

ijtimoiy mavjudligini bildirib, fanda millatning o`rganish chegarasini ancha kengaytiradi.

---

<sup>2</sup>. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. – T.: Fan, 1968. 231-bet.

<sup>3</sup>. Umumiy psixologiya. / A.V.Petrovskiy tahriri ostida.- T.: O`qituvchi, 1992. – 142-bet.

## QOBILIYAT NIMA?

*Hayotda o`z sohasi yo`nalishida bujok ishlarni bajarib nom qoldirgan kishilarni «tug`ma qobiliyat egasi» deb aytishganini ko`p eshitganmiz. Qobiliyat tug`ma bo`lishi mumkinmi? Yoki o`z ustida uzoq ishslash, tajriba orqali erishiladimi?*

Mavluda Vafoeva.

Rivojlangan mamlakatlarga nisbatan sobiq Ittifoqda psixologiya fanining kam taraqqiy etganligi va psixologiya xizmatining etarli darajada tashkil etilmaganligi natijasida keng jamoatchilik psixologik tushunchalardan ancha xabarsiz qolganligi yaqqol sezilgan edi.

Ayniqsa, qobiliyat, iste`dod kabi psixik xususiyatlarning kishida namoyon bo`lishi, rivojlanishi va kamol topishiga bog`liq jarayonlar jamoatchilik uchun hali ham sirliligicha qolib kelmoqda.

Qobiliyatlar kishiga tug`ilishidan tayyor holda berilgan bo`ladi, degan yanglish fikr ayrim ota-onalar o`rtasida va hatto pedagoglar orasida ham keng tarqalgan.

Keyingi yillarda bunday muammolarni kechiktirmay hal etish maqsadida iqtidorli bolalarni tanlash va ularni tarbiyalash borasida bir qator xayrli ishlarga qo`l urildi. Respublika iste`dod markazi tashkil etildi, viloyat markazlarida esa iste`dod markazi bo`limlari ishlab turibdi.

Soziologik tadqiqotlar natijalari iqtidorli bolalarni o`rganish va ularni tarbiyalash ishlarining yanada olg`a siljishiga ko`p jihatdan ota-onalar, tarbiyachilar, o`qituvchilar va keng jamoatchilikning qobiliyat va qobiliyatning turli ko`rinish darajalarini ifodalovchi psixologik atamalarning nomlanishini

(mohiyatini) ilmiy asosda tushunishlari bilan ham uzviy bog`liqligini ko`rsatmoqda.

Qobiliyat va shunga bog`liq atamalar (layoqat, iqtidor, qobiliyat, iste`dod, talant, geniy, dohiy, darg`a) haqida hanuzgacha etarli tushuntirishlar yo`q ekanda, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Hozir amldagi rus va o`zbek tilida chop etilgan psixologik adabiyotlarda qobiliyat haqida ba`zi izohlar berilgan, biroq bundan hamma ham birdek xabardor emas. Hatto hamma uchun ahamiyatli bo`lgan va keng jamoatchilikka mo`ljallangan «O`zbek tilining izohli lug`ati»da ham psixologik tushunchalar mukammal izohlanmagan.

Jumladan, unda layoqat-biro ishga yaroqlilik, qobillik, biror ishni bajarish, uddalash qobiliyati;

Iqtidor - kuch, qudrat, qodirlik;

Qobiliyat - biror ishga qobiliyatlilik, yaroqlilik; biror ishni bajara olish, qila olish xususiyati, layoqati;

Iste`dod – ijodiy qobiliyat, layoqat, talant;

Talant – katta qobiliyat, iste`dod;

Geniy – misilsiz iste`dodli, zakovatli;

Dohiy – favqulodda aql zakovatga ega bo`lgan dono, oqil yo`lboshchi kabi yo`sinda izohlangan bo`lib, o`rganuvchilarni qaysidir darajada yoki qaysidir ma`noda qanoatlantirish mumkin.

Keng jamoatchilik bu tushunchalarni psixologik mazmuni, ularning mohiyatini ilmiy asoslangan holda tushunishlari maqsadga muvofiq bo`lar edi.

SHunga ko`ra, layoqat – taraqqiyotning dastlabki tabiiy sharti sifatida ko`rinadigan insonga xos miya tuzilishini va nerv tizimining morfologik hamda funktsional xususiyatlarga xos imkoniyat ekanligini bilish kerak.

Iqtidor – bola tashqi olamdagи narsa va hodisalar bilan munosabatga kirishib, o`zidagi biologik imkoniyatlardan foydalanganda bu imkoniyat o`z quvvati va mohiyati bilan boshqa kishilardagi (bolalardagi) imkoniyatlardan o`zining yaxshiligi, ma`qulligi bilan kishilarning e`tiborini torta olsa, ana shunday xususiyatlarning borligiga qarab bunday bolalarni iqtidorli deyish mumkin.

Qobiliyat – shaxsning mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko`nikma va malakalarni egallash dinamikasida юзага chiqadigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyat odamning ma`lum bir ish yoki muammoni boshqa odamlarga nisbatan osonlik va chaqqonlik bilan bajara olishida namoyon bo`ladi. YOki qobiliyatli kishi deb, biror (yoki ko`p) sohani chuqur bilgan hamda shu bilgan bilimlarini ishlata olish mahoratiga (sifatlariga) ega bo`lgan kishini tushunamiz.

Talant – o`zbek tilida юонон tilidan o`tib kelgan (o`zlashgan) bo`lib o`zbekcha muqobili – iste`doddir. Iste`dod – shaxs psixik sifatlarining shu qadar murakkab birikmasiki, uni qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan belgilab bo`lmaydi. Iste`dod juda ko`p faoliyatlarni юksak darajada amalga oshirish imkoniyati bilan ta`minlovchi psixik sifatlarning eng xarakterli guruhi tarzida namoyon bo`ladi.

Iste`dod deb odamga murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uюoshmasiga aytildi. Geniyni, masalan genial matematik yoki darg`alar ma`nosida tushunish mumkin. Bunday kishilar shu fanni mukammal egallash asosida юksak aql-zakovatga ega bo`lib, ular shu fan xulosalarini hayotning hamma tomonlariga oqilona qo`llay olish imkoniyatlariga ega bo`ladilar va shu fanda katta-katta kashfiyotlar ochishga ma`naviy qodir kishilardir.

Dohiylar – «favqulodda» aql-zakovatga ega bo`lgan kishilar bo`lmay, bir yoki bir necha fannigina emas, hatto hamma fanlarda aniq fikr юорита oladigan, umuman tabiatning, jamiyatning va inson tafakkurining eng umumiyligini qonuniyatlarini chuqur anglagan, shunga tayanib oqilona ish tutadigan kishilardir.

Qisqasi, har bir ishning samarali bo`lishi shu ishni boshlashdan avval uning mohiyatini to`la - to`kis tushunish bilan uzviy bog`liq. Bunday tushunish eng avvalo kishidagi qobiliyatga xos imkoniyatlarga asoslanadi.

Qobiliyatning irsiyat yo`li bilan o`tishi haqidagi g`oya ilmiy nazariyaga ziddir. Kishi taraqqiyoti va uning qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy – tarixiy qonuniyatlar bilan boshqariladi. Qobiliyatning uyg`onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog`liq bo`lib, dastlab bolaning ehtiyojlarida va qiziqish yo`nalishlarida namoyon bo`ladi.

Kishilarda qobiliyatni tarbiyalash uchun ota-onasini tarbiyasi, o`qituvchi va boshqa tarbiya bilan bog`liq kishilarning qobiliyat mohiyatini va uning o`ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir.

## **RUHIY CHIDAMLILIK**

Favqulodda yoz beruvchi xavfli vaziyatlarda kishining hissiy holatini boshqarish qobiliyati kuchayib, noxush hodisalarga nisbatan o`zini tuta olish, vaziyatga moslashish qobiliyatini uzoq vaqt saqlay olish xususiyati namoyon bo`ladi. Bu ilmiy tilda tolerantlik, ya`ni chidamlilik, sabr-bardoshlilikdir.

Odamga xos bo`lgan barcha ruhiy holat, xususiyat va qobiliyatlar kabi, tolerantlik ham faqat ijtimoiy muhitda, kishilar bilan bo`ladigan o`zaro muloqot davomida, ta`lim-tarbiya ta`sirida, hayotda duch keladigan ko`plab muammolar va mashaqqatlarni engib o`tish jarayonida shakllanuvchi murakkab xususiyatdir. U har bir shaxsda turli darajada rivojlanadi. Uning kishi ruhiyatida qanchalik rivojlanganligi va undan foydalana bilish mahorati shaxsning tafakkuri, sezgi va xotira, his-tuyg`u va irodasi qanchalik shakllanganligi, mijizi (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik) qay yo`sinda tarkib topganligi bilan belgilanadi.

Kishida chidam, sabr-toqatning yozaga kelishi va shakllanishi atrof-muhitdagi voqelikni to`g`ri baholay bilish yoki sodir bo`layotgan noxush vaziyat, hodisalarni oqilona tahlil etib to`g`ri xulosa chiqara olishga aloqadordir.

Tolerantlik holatini paydo qiluvchi omillarning kelib chiqish sabablari turlicha. Har bir odam uchun (shartli ravishda) shaxsiy, kasbiy, oilaviy sabablar, jamoa muhiti, milliy dunyoqarash shunday sabablar turkumiga kiradi. Turmushda uchraydigan qiyinchilik va to`sqliarning yozaga kelishi bilan bog`liq noxush vaziyatlar sababi hamda mohiyatini chuqur o`rganish, muammolarni imkonli boricha ijobjiy hal etishda zarur chora-tadbirlar rejasini tuzish ham shaxsdagi mavjud ruhiy imkoniyatlar bilan bog`liq.

So`z ioritilayotgan muammoni o`rganish davomida aldashi yoki pand berishi mumkin bo`lgan vaziyatga nisbatan kishining o`ziga xos tarzda javob bera olishi, mavjud holatdan chiqib ketish yo`lini oldindan ko`ra bilish xususiyatiga ham duch kelamiz.

Har bir kasb faoliyatida o`ziga xos ruhiy zo`riqish sodir bo`ladi. Xususan, ko`proq asabiylashish roz beradigan kasblardan biri o`qituvchilik ekani sir emas. Bu kasb aksari asabiy zo`riqishni, ko`proq aqliy kuch sarflanishini talab etadi.

Asabiy zo`riqish jihatidan o`qituvchilar psixolog R.Kettel testi bo`yicha yoqori qiymatlarni namoyon qiladi. Binobarin, ularning ruhiy holati tez qo`zg`aluvchan va besaramjondir. SHunisi ajablanarlik, o`qituvchilarda bunday asabiy zo`riqish mакtabdagi ilk ish kunlaridanoq boshlanadi. Ular ish tajribasining ortishi bilan bir qatorda ta`sirchanlik va asabiy zo`riqish holati ham kuchayib boradi. Masalan, 15 yilgacha ish stajiga ega bo`lgan o`qituvchilarning bunday ko`rsatkichlari doim yoqori bo`ladi. Savol tugiladi: o`qituvchining ish tajribasi oshib borgani sayin ruhiy qo`zg`aluvchanlik va zo`riqish kuchaysa ham, nima uchun u muvaffaqiyatli ishlayveradi. Gap shundaki, yillar o`tishi bilan shakllanadigan tolerantlik hisobiga asabiy qo`zg`aluvchanlik va zo`riqish pasayadi. Buni 15-20 yil ishlagan o`qituvchilar misolida ko`rish mumkin.

Tolerantlik holati, uning har bir insonda rozaga kelishi va shu bilan bog`liq holatlar psixologiya Fani o`rganadigan muhim masaladir. Zero, inson o`zini-o`zi anglamay turib, dunyoni to`g`ri anglay olmaydi.

## **BEBAHO MANBA**

*Abu Rayxon Beruniyning etnopsixologik qarashlariga doir*

Xalqimizning psixologik savodxonligini oshirish, o`zbek etnopsixologiyasini fan sifatida shakllantirish shu kunning asosiy vazifalaridan bo`lib qolmoqda. Bu o`z navbatida O`zbekistonda psixologik fikrlar taraqqiyoti tarixini mukammal o`rganib chiqishni va amaldagi psixologiya fani darsliklarini tubdan qayta qurishni taqazo etadi. Buning uchun xalqimiz orasidan etishib chiqqan buroq allomalar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad YAssaviy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning ilmiy-madaniy merosidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

SHu jumladan, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) ilmiy-madaniy merosidan foydalanish, ayniqsa, muhimdir.

Beruniyning ilmiy, falsafiy ta`limoti Markaziy Osiyodagina emas, butun musulmon SHarqida, hatto G`arbiy Ovrupo mamlaktlarida ham ilg`or ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-ilmiy va falsafiy fikrlarning rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa, uning mashhur asari «Al-osoral-boqiya an al-qurun al-xoliya» ya`ni «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»dir. (Olim bu asarini Gurgon shohi Qobus Vashimgir dargohida юрган kezlarida, 1000-yillarda yozgan). Kitobda muallif Markaziy Osiyo xalqlarining, forslarning, юононларининг, yahudiylarning, xristianlarning, arablarning yilnomasi va taqvimi, jo`g`rofiyasi va ob-havosi, tarixi va urf-odati, turmush tarzi, dini va e`tiqodlari haqida, koinotdagi astropolologik o`zgarishlar va ularning erdagisi hayotga ta`siri bilan bog`liq bitmas-tuganmas qimmatli ma`lumotlar beradi. Asar arab tilida yozilgan. U SHarqda «Osorulboqiya», G`arbda esa «Xronologiya» nomi bilan mashhur bo`ldi, Beruniyga juda katta ilmiy shuhrat keltirdi.

Beruniy asarining yozilishi sabablari to`g`risida shunday deb yozadi: «Adiblardan biri mendan turli xalqlar haqida tarixlar, ularning boshlanishlari va shoxobchalari, ya`ni oylar va yillari ustida, u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtiloflar sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va har xil юомушлар үчун belgilangan kunlar, millatlarning ba`zisi amal qilmaydigan boshqa marosimlar haqida so`radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o`quvchi fahimlaydigan, turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan bir asar yozishga da`vat etdi».

Bu юк олим ushbu asarni yozishga kirishar ekan, bu ish oson kechmasligini chuqur his etadi. CHunki qadimgi xalqlarning kelib chiqishi, ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar nihoyatda chalkashib ketgan edi. Beruniy yolg`on afsonalar va asossiz ma`lumotlar to`lib-toshib yotganini ta`kidlab: «Bizning zamonamiz bilan maxluqot boshlanishi orasida uzoq muddat va ko`p zamon borki, kishi har qancha urinsa ham u zamonni to`la o`rganishi og`irdir», - deya ogoh etadi. Olim bu asar ustida ishlar ekan, yolg`on – yashiqlardan xoli bo`lishi үчун tabiat va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga asoslangan holda o`tmish rivoyatlariga o`z davriga eng yaqin va eng mashhurlarini – ishonchlilarini birinchi galda saralab oladi. SHu sababli «Qadimgi xalqlarda qolgan yodgorliklar» asari izchilligi va mukammalligi bilan alohida ajralib turadi.

Ushbu nodir asarning ahamiyatini muallif kamtarona baholab: «Biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sezuvchining ulardan boshqa rivoyatlar ustida ish toritishga yordamchi va bizga muyassar bo`lmagan narsalarga erishish uchun yo`llovchi bo`ladi», - deb yozadi.

Asarning psixologiya fani uchun eng nodir va o`ziga xos tomoni shundaki, unda erda hayotning yozagaga kelishi, odamning paydo bo`lishi va insoniyat jamiyatining shakllanish taraqqiyoti, odam tuzilishiga ta`sir etuvchi eng asosiy omillar nimalardan iborat ekanligi ilm-fan olamida birinchilardan bo`lib ilmiy asoslab berilgan. Odamlarning rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo`lishlari faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va arning – odam yashaydigan joylarning farqlaridan hamdir, deyiladi asarda.

Bundan tashqari, odamning hayot kechirishi yoki uzoq umr ko`rishi uning sog`lig`iga, ruhiy kechinmalariga va shuningdek, unga bevosita ta`sir etuvchi koinotdagi astrologik o`zgarishlarga ham bog`liqligini alohida ta`kidlanadi.

Beruniy tilning paydo bo`lishi bilan kishilik jamiyati taraqqiyotida yo`z bergen sifat burilishi hamda har xil tillarning yozagaga kelish qonuniyatlarini tahlil qilar ekan: «Tillarning turlicha bo`lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarini ifodalash uchun zarur bo`lgan so`zlarga ehtiyoj tug`ilishidir. Uzoq zamonlar o`tishi bilan haligi iboralar ko`payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan», - degan xulosaga keladi.

Beruniy asarida diniy aqidalar va dinning yozagaga kelishi sabalarini tushuntiradi. Uning kishilar dunyoqarashining shakllanishidagi o`ziga xos ta`sirini aytib o`tadi. U ba`zi bir g`ayritabiiy hodisalarini bu «tabiat yanglishuvi», deb izohlaydi. Tabiat hodisalari: kecha, kunduz, oy, fasl, yil va boshqa hodisalarning mohiyatini ilmiy asoslash bilan birga, aynan shu hodisalar sababli turli-tuman urf-odatlar, rasm-rusumlar, an`analar va marosimlarning paydo bo`lganligini va mukammallahuvi sabablari ustida to`xtalib, O`rta Osiyo va Eron xalqlarining Fan va madaniyat sohasida ancha yoqorilagini, islomgacha bo`lgan arablar madaniyati esa ancha orqada ekanligini uqtiradi.

Beruniy o`z asarida tarbiya masalasiga alohida e`tibor berib, tarbiyada atrof-muhit va jamoaning ta`siri kuchli ekanligini aytadi. Bolalarni o`qitish va tarbiyalash jarayonini to`g`ri tashkil qilishning muhimligini qayta-qayta zikr etadi. Ulug` olim mакtabda o`rganilishi lozim bo`lgan fanlar qatorida

matematika, tabiatshunoslik, fizika, Kimyo, falsafa, mantiq, til va hokazolarning muhimligini uqtirgan. U ta`limning eng zarur tarkibiy qismlari deb quyidagilarni ifodalagan: 1. Aqliy tarbiya. 2. Axloqiy tarbiya. 3. Estetik tarbiya. 4. Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. 5. Do`stlik tarbiyasi va baynalminal tarbiya.

Xullas, alloma o`quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tarbiyalanuvchilarining jismoniy va ruhiy imkoniyat darajalarini hisobga olgan holda amlga oshirish me`yorlari haqida o`z ilmiy xulosalarini bayon qiladi.

Binobarin, Beruniy ta`limoti nafaqat tabiat, falsafa, tarix, pedagogika fanlarini, balki psixologiya fanini o`qitishda ham rang-barang misollarga boy bebaho manba bo`la oladi. Bu bujok olimning ilmiy merosi jahon xalqlari uchun, shu jumladan, o`z vatandoshlari- Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi oliy va o`rta maxsus o`quv yortlarida mutaxassislarni tayyorlashda, ularda ilmiy va milliy psixologik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda eng ahamiyatli qo`llanma bo`lib xizmat etadi.

## **MARKAZIY OSIYODA XV ASR TA`LIMIDAGI DEMOKRATIK G`OYALAR**

Insoniyat џivilizaцiyasining tarixi ko`p bosqichli va murakkabdir. Retrospektiv (o`tmishga nazar) tahlil har bir millat yoki elat o`zining beqiyos ioksalishi va tushkunligiga ega ekanini ko`rsatadi.

Buni biz o`zbeklar milliy madaniyatining taraqqiyoti misolida ham yaqqol ko`ramiz. SHuni ta`kidlash zarurki, ta`lim orqali ruyobga chiqadigan madaniyat namunalari avloddan-avlodga o`tib kelgan. Bizda hozirgi madaniy taraqqiyot darajalari ham madaniy texnologiya vorisligining eng katta dalilidir.

Fikrimizning tasdiqini feodalizm davri maorifi va madaniyati misolida ko`rshimiz mumkin.

XV asrda feodalizm davri madaniyati o`z ioksalishining юqori darajasiga etdi. Markaziy Osiyoda jahonga mashhur olimlar, rassomlar, jamoat arboblari: Rumiy, Ulug`bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod va boshqalar

etishib chiqdi. SHuningdek, qator madaniyat maskanlari, shu jumladan, Samarqanddagi Ulug`bek madrasasi tashkil topdi.

O`sha paytda Samarqand tabiiy-matematik bilimlar va ilmiy-falsafiy qarashlar markaziga aylandi. XV asrda qator falsafiy asarlar yaratildi va ularda ijtimoiy-axloqiy muammolar yoritildi. SHunisi qiziqarlik, o`sha davr olimlari o`zlaridan oldin o`tgan mutafakkirlardan farqli ravishda mavjud tuzumga nisbatan faolroq munosabatda bo`lganlar. Ular barcha fuqarolar teng va o`zaro bir-birlari bilan odilona munosabatda bo`lishlari kerak deb hisoblaydilar. Kishilarning turmush sharoitini tubdan o`zgartirishning eng muhim shartlaridan biri xalqning ma`lumotlilik darajasini oshirish ekanini e`tirof etadilar.

CHunki, Markaziy Osiyodagi davlatlarda o`sha davrda o`qitish va tarbiyalash ishlari tabaqali yo`nalishda amalga oshirilar edi. SHunga ko`ra hukmron sinflar aholisining bolalari mufti va katta mudarrislar boshchilik qilgan madrasalarda ta`lim olgan. Odatda bunday madrasalar ancha katta bo`lib, ularga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan yoqoriqoq huquqlar berilgan.

SHuningdek, mazkur madrasalarda kattaroq hajmdagi bilimlar o`rganilgan.

Kambag`al aholining bolalari uchun ta`lim asosan maktablarga qatnashdan iborat bo`lib, ularagi butun o`qitish jarayoni diniy maqsadlarga bo`ysungan. Bunday maktablar masjidlarda, qabristonlardagi jilovxonalarda yoki xususiy uylarda ochilgan va ma`lum darajada savodxonlikni kengaytirishga xizmat qilgan.

SHuni alohida ta`kidlash kerakki, o`qituvchilar orasida g`oyat ma`lumotli kishilar ham bo`lgan. Xalq bilim va madaniyatga intilgan. Buning yorqin ifodasi – so`fiylik o`sha paytdagi ta`lim mafkurasining asosiy tayanchi bo`lgan. Taniqli rus pedagogi K.G.Mitrofanov so`fiylik davriga xos tarbiyalash va o`qitishdagi ayrim insonparvarlik an`analarini yoritgan (Mitrofanov K.G.Uchitelbskoe uchinichestvo. Pedagogika i psixologiya. (Podpisnaya nauchnopopulyarnaya seriya).- M., 1991, № 6, s. 80).s.

Bunday an`analar o`qituvchining so`fiylik ta`limotida ifodalangan majburiyatlarida yaqqol ko`rinadi. Ana shu majburiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1.O`qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o`zining farzandlaridek munosabatda bo`lishi kerak. SHuningdek, bolalarning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi uchun yanada avylashi lozim.

2.O`qituvchi o`zining ishi uchun haq ta`ma qilmasligi, in`om olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o`quvchidan uning o`qishini xohlashi uchun minnatdor bo`lishi zarur.

3.O`qituvchi hech qachon o`quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg`a siljishini o`quvchi emas, o`qituvchi baholaydi.

4.O`qituvchi o`quvchini yomon yo`ldan qaytarishi uchun unga to`gridan-to`g`ri emas, balki nimalargadir sha`ma qilib gapirishi lozim.

5.Ma`lumki fanni o`rgatadigan o`qituvchi o`quvchilarning oldida boshqa fanlar haqida nojuya gap aytmasligi kerak.

6.O`qituvchi nimani o`rgatsa, o`zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o`qishning samarasini ifodalaydigan jonli misoldir va hokazo.

O`qituvchining mana shu majburiyatları shu xalqning ta`limdagı qadriyatlarini, uning madaniyatini, bosh qadriyat sifatidagi insonning ўksalishini namoyish etadi.

SHunga ko`ra xalqning madaniyatini davom ettirishga va rivojlantirishga da`vat etilgan o`qituvchining ўksak darajada qadrlanishi bejis emas.

Ko`rib chiqilayotgan davrdagi o`qituvchining qiyofasi haqidagi ayrim misollarni keltirish o`rinlidir.

Alisher Navoiy yashagan paytda o`qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo`lish va qanday qilib bo`lsa-da, uning obro`sini oshirish kerak deb hisoblangan. O`qituvchining mehnatiga haq to`lashda ham unga g`amxo`rlik qilingan. Xususan, Alisher Navoiy o`zining madrasasidagi o`qituvchilarga har yili 200 oltin tangadan haq to`lagan va ularni bug`doy bilan ta`minlagan. Bundan tashqari maktabga kishilar ham turli in`omlar bilan yordam bergenlar. Alisher Navoiyga qadar o`quvchilarning moddiy ahvoli asosan o`quvchilarning in`om va sovg`alariga bog`liq bo`lgan. (A.Navoiy. Mahbub-ul-qulub. T., 1983, 83-84 betlar)

O`sha davrdayoq, o`qituvchining ishi eng murakkab va qiyin ishlarning biri deb hisoblangan. Uning asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarning ongiga yoshi ulug` va o`qimishli kishilarni hurmatlash, nogiron va kasalmand odamlarga g`amxo`rlik qilish, ota-onalarga mehr-muhabbat ko`rsatish,

vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, o`zini tuta bilish, xushmuomalalik kabi fazilatlarni singdirishdan iborat bo`lgan. SHuning uchun o`qituvchiga ma`lum talabalar qo`yilgan. SHunga ko`ra, mudarris (o`qituvchi) yoksak darajada bilimli, mantiqli, dono, kishilar bilan yaxshi muomala qila oladigan, vazmin, o`zining xulqi bilan ibratli odam bo`lishi kerak, deb hisoblangan. Bu o`sha davrdagi o`qituvchining o`ziga xos ideali bo`lgan, albatta. Aslida esa, mudarrislar orasida yaxshi tayyorlanmagan, o`zining majburiyatlarini bilmaydigan kishilar ham bo`lgan. Ularning ko`pchiligin chala mullalar, noinsof va takabbr kishilar tashkil etgan.

SHunday qilib, XV asrda yashab, ijod etgan mashhur mutafakkir olimlar o`z xalqi uchun chinakam e`tiqod, katta ishonch va haqgo`ylik bilan xizmat qilishga tirishganlar hamda o`zlari ham oliyjanoblik va axloqiy poklikning ajoyib namunasi bo`lganlar. Ular xalqni ma`naviy va madaniy merosini saqlash hamda boyitish uchun kurashganlar. Ular xalq orasida fan va ta`limni keng yoyish tarafдорлари bo`lgan. SHu Bilan birga o`zbek xalqining madaniyati va ta`limiga kirib kela boshlagan riyokorlik hamda munofiqliklarga o`ziga xos yo`sinda qarshilik ko`rsatganlar.

*O`qituvchi psixologiyasi mavzusi bayonida*  
**ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISH**

Ulug` mutafakkir va buюok shoir A.Navoiy g`oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to`plagan boy tajribasi va xulosalarining yig`indisi sifatida yirik nasriy asari bo`lmish «Mahbub-ul-qulub»ni yozadi. A. Navoiy Ushbu asarda bevosita o`z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga xarakteristika beradi va ularning qaysi biri yaxshi va yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini o`ziga xos pedagogik-psixologik nuqtai nazar bilan boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi.

«Mahbub-ul qulub» uch qismdan iborat. Uning birinchi qismi kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida bo`lib, qirq fasldan iboratdir. Ayniqsa, shulardan 14-fasl mudarrislar to`g`risida va 18-fasl mактаб ahli to`g`risida.

Pedagogika oliy o`quv ўortlarida o`qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsini o`рганишда ushbu manbalarga tayanish, undan samarali foydalanish be`qiyos ahamiyatga ega, desak mubolag`a bo`lmaydi. Navoiy mudarrislar (o`qituvchilar)ning jamiyatdagi ўoksak mavqeini alohida e`tirof etadi, ulug`laydi. O`qituvchining aslo amalparast bo`lmasligini, o`zi bilmagan narsalar haqida hech qachon so`zlamasligini, o`z mansabi-mavqeidan foydalanib maqtanmasligini, o`z fikrini birovga tiqishtirishga (o`tkazishga) urinmasligini, hurmattalab va izzattalab bo`lmaslikni, o`ziga ortiqcha baho berishga odatlanmaslikni alohida ta`kidlaydi.

O`qituvchi shunday illatlardan holi bo`lmasa, o`quvchilar tarbiyasida va hatto keyinchalik butun jamiyatda, odamlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarda kechirib bo`lmaydigan ko`ngilsizliklar ўоз berishi mumkinligini ham e`tibordan chetga qoldirmaydi.

Navoiy o`qituvchining dunyoviy bilimlarni egallagan, olim va bilimdon bo`lishini, shu bilan birga, o`zini olim va bilimdon deb ko`rsatmasligini, u har qanday yaramasliklardan hazar qilmog`ini, noplod odamlardan uzoq ўormog`ini, turli-tuman axloqqa xilof ishlarni qilishdan doimo o`zini tutmog`ini, joiz bo`lмаган ishlar bilan mashg`ul bo`lib, odamlarni yomonlikka o`rgatmaslikni, qilish kerak bo`lgan ishlarni qimaslikni ham odamlar undan o`рганmasligini, halol ish tutmog`i, insoniyat uchun yaxshilik sanalgan barcha ishlarda namuna bo`lmog`i kerakligini uqtiradi.

A. Navoiy mактаб ahli to`g`risidagi faslda o`qituvchi bilan o`quvchilar o`rtasida bo`ladigan o`zaro munosabat etikasiga alohida e`tibor bilan qaraydi. O`qituvchining qo`polligi, qattiq qo`lligi o`quvchilar bilan bo`lgan munosabatlaridagi hati-harakatlarida albatta ifodalanishi, rahmsiz, ko`ngli tosh, farosatsizligi va ta`magirligini esa uning ўоз-ко`з ifodalaridan, nutq ifodasidan, hati-harakatlaridan osongina uqib olish mumkinligini, buning hammasi esa, o`qituvchining aqli kamligiga giriftor bo`lganligini ko`rsatib, endi ular yoshlarni tarbiyalash emas, ularning taqdirida bir qator jumboqlar, kamchiliklar, buzilishlar bo`lishiga aynan sababchi bo`lishini ko`rsatadi.

A.Navoiyning «Ular qiyash yo`li bilan bolalar ko`nglini o`zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do`q-po`pisa bilan tartibga solmoqchi bo`lardilar.Ulardagi ko`rinib turgan qo`pollik yosh bolalardagi kelishmagan hatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir»- degan ibratomuz so`zleri yoqoridagi fikrimizni tasdiq etadi.

SHuning bilan birga, A.Navoiy o`qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini - qat`iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, hatto tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va iorish-turishlari bilan hammaga namuna bo`lishini, har bir yosh avlodga undagi o`ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda yondoshishni, shunga qaramasdan tarbiya ishi juda ham mashaqqatli, murakkab ish ekanligini alohida e`tirof etadi. «Lekin insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi. Maktabdor domla esa, bir to`da bolaga ilm-adab o`rgatadi... Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi, idroki ozlari bo`ladi. SHu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko`p». Bu fikrlardan tarbiyachining ishi naqadar mashaqqatli, ammo sharaflı ekanligini bilib olish mumkin.

*Haq yo`lida kim sanga bir harf o`qitmish ranj ila  
Aylamoq bo`lmas ado oning haqqin ioz ganj ila*

A.Navoiy merosidan pedagogika va psixologiya fanlarini o`qitishda samarali foydalanish, na faqat milliy pedagogika yoki psixologiya fanlarining va hatto jahon pedagogika va psixologiya fanlarining ham ravnaqiga salmoqli hissa qo`scha oladi.

## AXLOQNI ULUG` ETGAN

SHarqda qadim – qadimdan ilmning juda ko`p sohalari negiz topgan va rivojlangan. Bunda utmish tariximizda o`z nomi hamda ishlari bilan jahonga mashhur allomalar guvohdir. Biroq, oradan bir necha asrlar o`tsa ham ularning barcha ishlari, hatto ayrimlarining nomlari ko`pchilik ommaga ma`lum emas. SHunday mashhur shaxslardan biri Jaloliddin Davoniy sanaladi.

Mazkur alloma Kozarun shahri (Eron) yaqinidagi Davon qishlog`ida 1427 yil dunyoga kelgan. U falsafa fanining bilimdoni edi.

Davoniy falsafiy qarashlarida Abu Nasr Farobiy hamda Abu Rayhon Beruniy ta`limotlariga asoslangan va buni o`ziga xos tarzda rivojlantirgan. Alloma ta`limotida psixologiyaga doir «Mijoz talqini haqida risola», «Ruhshunoslik haqida risola» va ayniqsa «Axloqi Jaloliy» asarlari alohida o`rin tutadi. Bu asarlardagi ta`limotning psixologiya fani uchun ahamiyatli tomoni shundaki, moddiy dunyoning yaralish sabablari, uning mavjudligiga bog`liq tushunchalar, narsa va predmetlarning o`zaro bog`liqligi, odamlar jamoasining yozagaga kelishi va nihoyat, jamiyat taraqqiyotidagi eng muhim omillar nimalardan iborat ekanligi har tomonlama asosli, ilmiy nuqtai nazardan izohlab berilgan.

Davoniyning tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotiga bog`liq fikrlari ancha chuqur, asosli va mukammalligi bilan ajralib turadi. SHu bois uning ta`limoti o`z davrida eng mukammal deb baholandi va keyingi ta`limotlar uchun asos bo`lib xizmat qildi.

Allomaning ta`biricha, moddiy dunyo va unda mavjud bo`lgan narsa, predmetlar oddiy jismlardan: suv, havo, tuproq, olov hamda to`qqizta osmon yoritqichlaridan, shuningdek, murakkab jismlardan – minerallar, o`simliklar va hayvonot dunyosidan iborat bo`lib, bir – biri bilan o`zaro bog`langan. Ular doimo harakatda rivojlanib takomillashib boradi. Xoh osmon jismlari bo`lsin, xoh boshqa oddiy yoki murakkab jism bo`lsin doimo tirik mavjudot bilan harakat qiladi. Har bir narsa, mavjudot kabi osmon jismlari ham ma`lum bir ishni bajaradi. Ularning harakatidan yil, oy, kecha va kunduz, fasllar yozagaga keladi. Natijada ular murakkab jismlarning mavjudligini ta`minlaydi.

Inson yashash uchun murakkab jismlar va unsurlardan foydalanishga ehtiyoj sezadi, shu bilan birga boshqalar bilan aloqada bo`lish zaruriyati yozagaga keladi. Har bir shaxsning kamoloti, ravnaqi va bir butunligi boshqa kishilarga ham bog`liq.

SHu bois yosh avlodni tarbiyalashdek mas`ul vazifa sharq mutafakkirlarini azaldan qiziqtirib kelgan. Ular o`z asarlarida tarbiya masalasiga katta e`tibor berib bu borada atrof – muhit va jamoaning ta`siri kuchli bo`lishini asosli ravishda ta`kidlab o`tishgan.

Davoniy ta`limotida ham shu xususida o`ziga xos fikrlar bildirilgan.

Alloma inson xulqi, odobi va turli fazilatlarining yozagaga kelish sababini tushuntirar ekan, odamzod atrof – muhit ta`sirida shakllanib boradi deb

ko`rsatadi. U, kishilardagi shaxsiy xislatlarning ayrimlari tug`ma bo`lsa, boshqa birlarini hayot davomida hosil qiladi degan fikrni bayon etgan. SHuning uchun xulqni egallahsha har bir shaxsning o`ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim.

Bundan tashqari, Davoni, axloqning vaqt o`tishi bilan o`zgarib, rivojlanib va yanada takomillashib borishini eslatib o`tadi. Olimning fikriga ko`ra axloq to`rtta asosiy tushunchadan tashkil topgan. Bu - donolik, adolatlilik, shijoat va iffatdan iborat. Davoni donolik – amaliy aql mahsuli ekanligini ta`kidlab, uning belgi va turga ko`ra xilma – xil bo`lishi haqida fikr bildiradi. U zukkolik, fahm tezligi, zehn sofligi, ilmni tez egallah qobiliyati, masala mohiyatini chuqur tushunish, xotirada saqlash kabi fazilatlarni alohida ajratib ko`rsatadi. SHu hislatlarga ega kishi donishmand sanaladi.

Davoni adolatni bir necha turga ajratadi va sadoqat, vafo, totuvlik, tenglik, erkinlik, ishq – muhabbat kabi jihatlarini alohida ko`rsatib o`tadi. Alloma ayni paytda jamiyatdaadolatsizlik degan qusur ham mavjudligi haqida to`xtalib, bu – jabr-zulm, zo`ravonlik, insonni tahqirlash kabi yaramas illat ekanligini ta`kidlaydi.

SHijoatni esa Davoni insondagi eng yoksak fazilat deb hisoblaydi. Mazkur fazilat hayotda kamtarlik, chidamlilik, ruhan tetiklik, vazminlik, mehr – shafqat, matonatlilik kabi xislatlar ko`rinishida namoyon bo`ladi. Davoni iffat deganda kishi hissiy quvvatlarining aqlga bo`ysundirilishini tushunadi va sabr – qanoat, hayo, saxovat va erkinlikni iffatning eng muhim ko`rinishlari deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, mashhur alloma Davoni ta`limoti nafaqat falsafa, tarix fanlarini o`qitishda, shuningdek psixologiya fanini o`qitishda ham bebaho manba bo`la oladi. Allomaning ilmiy merosi sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi oliy va o`rta maxsus o`quv yortlarida o`qituvchi, murabbiylar tayyorlashda, ularda milliy dunyoqarash va tushunchalar hosil qilishda muhim qo`llanma bo`lib xizmat qiladi.

## **NUTQ MADANIYATI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Insonga xos bo`lgan barcha psixik jarayonlar va psixologik xususiyatlar kabi nutqni egallash va undan foydalanish mahorati ham odamda tug`ilganidan so`ng faqat ijtimoiy muhitda, odamlar bilan bo`ladigan o`zaro muloqotlari jarayonida, mashaqqatli ta`lim – tarbiyaning ta`siri ostida shakllanib, rivoj topadigan murakkab aqliy faoliyatdir. Nutqning yoksak taraqqiyot darajasi va uning qadr qimmati hisoblangan nutq madaniyatiga ega bo`lish esa har kimga ham nasib etavermaydigan inson uchun eng nodir fazilatlardan hisoblanadi. Bu fazilat insonga tug`ma yoki g`oyibdan berilgan bo`lmay, insonning nutq faoliyatini egallashi bilan bir qatorda shakllanib sayqal topadi. Psixologik nuqtai nazardan nutq madaniyatining shakllanishi va sayqal topishi uchun zarur bo`lgan muhitni biz ikkiga: - oila muhiti va oiladan tashqari muhitga bo`lsak maqsadga muvofiq bo`ladi. Ikkala muhitda ham nutqni shakllanishi va takomillashuviga ta`sir etuvchi omillarni esa bevosita va bavosita omillarga ajratish mumkin.

Bevosita omillarga odamning boshqa odamlar bilan bevosita nutqiy muloqotga kirishish jarayoni va shu jarayonni ko`rish, eshitish va o`zaro nutqiy muloqotga kirishish asosida o`zlashtirishi tushuniladi. Bavosita omillarga odamning radio, televidenie, kino, yozma axborot manbalaridagi (kitob, gazeta, jurnal va boshqalar) nutqiy muloqotga kirishish jarayonlarini ko`rish, eshitishi va o`qib fikrashi yordamida ularni o`zlashtirishi tushuniladi.

Kishi bevosita omillar yordamida nutq madaniyati shakllanishi uchun zarur bo`lgan eng muhim shart – sharoitga, ya`ni nutqga ega bo`ladi. Nutqni egallash va undan foydalanish jarayonida shakllanadigan nutq madaniyati esa bir qator fiziologik va psixologik qonuniyatlariga muvofiq ro`y beradi. Nutq madaniyati shaxsning na faqat so`z boyligiga, ushbu so`z boyligidan foydalana olish uslubiga, odobiga, malaka va mahoratiga ham uzviy bog`liqdir. Bular o`z navbatida shaxsning psixik jarayonlari: - sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol: emociional irodaviy tomonlari: - his – tuyg`u, iroda va har bir shaxsda mustahkam qaror topgan individual psixologik xususiyatlar: - xarakter hislatlari, temperament va qobiliyatlarning taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi.

Nutqni tinglay olish, shunga binoan fikr yoritish, so`zlarni tanlash, gap tuzish, suhbatdoshning kimligini hisobga olish, nutq ohangini tanlash, qisqa, to`la, aniq va asosli gapishtish, gavdani, gavda harakatlarini va yoz ifodasini nutqqa moslash, o`rnida kulish yoki hafa bo`lish, his – hayajon bilan bog`liq

tushunchalarni nutqda me`yorida qo`llash va ulardan o`rinli foydalanish shaxsdagi mavjud psixologik imkoniyatlarga asoslangan holda юз beradi. Bular nutq madaniyati uchun ma`lum ma`noda mezon bo`la oladi.

## **INSONPARVARLIK – ENG GO`ZAL XISLAT**

YAqin yillargacha jahon psixologiya fanida yagona insonparvarlik an`anasiga ikki qarash hukm surib keldi. Bulardan biri marksizm falsafasiga asoslangan psixologiya bo`lsa, ikkinchisi insonparvar psixologiya deya farqlanib kelindi. Biroq ular o`rtasida azaldan principial farq mavjud bo`lib, uni anglab etish va bartaraf qilish uchun faqat keyingi davrdagina (XX asrning 90 – yillaridan boshlab) qulay mafkuraviy va ilmiy shart – sharoitlar yaratildi.

Marksizm falsafasiga asoslangan psixologiyada «Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs» ideali har doim pirvard maqsad, ideal chegara yoki shaxs kamol topishi jarayonining samarasi va o`ziga xos andozasi sifatida qarab kelindi. Boshqacha aytganda, aynan ilmiy – nazariy fikr – mulohazalarda ham, amaliy psixologik – pedagogik o`quv – tarbiya faoliyatida ham «idealdan hayotga» deb atash mumkin bo`lgan strategiya amalga oshirib kelindi. Bunda idealning o`zi haddan tashqari mavhum va jo`n bo`lib, shaxs rivojlanishining hozirgi hayot ufqidan narida turgan qandaydir eng ўksak mezon tarzida tushunildi. Idelning real hayotdan haddan tashqari ajralib qolishi uning hayot bilan asta – sekin aloqasi yo`qolishiga olib keldi. Natijada bunday yondashish bir tomondan psixologiya va pedagogika sohasida o`ta soxta nazariy fikr – mulohazalarni, ikkinchi tomondan psixologik – pedagogik amaliyotning haddan ziyyod foydasizligini keltirib chiqardi.

Insonparvarlik – eng go`zal xislat. Bu borada keyingi paytda amerikalik psixologlar etakchilik qila boshladi. Mazkur psixologiya vujudga kelgan davrdanoq, bir qator tarixiy, siyosiy umummadaniy vaziyatlar taqozosi tufayli idealning hayotdan ajralishiga asoslangan qalbaki tadqiqotchilik barham topa boshladi. Amerikalik psixologlar to`laqonli faoliyat ko`rsatuvchi inson idealini yoki aniqrog`i bu idealning empirik mohiyatini hayotning o`zidan izlashga harakat qildilar. A. Maslau, K. Rodjers singari psixologlar, o`qituvchilar,

olimlar, ma`murlar, siyosiy arboblar faoliyatlarini o`rganib, shaxs sifatida rivojlanish va faoliyat ko`rsatishning ideal shakllari real hodisalar sifatida o`rganilishi mumkinligini ko`rsatishdi.

SHu ma`noda insonparvarlik ruhshunosligida vujudga kelgan paytdanoq «hayotdan idealga» deb nomlangan yo`nalish amalga oshirildi. Insonparvarlik idealining ravshan ifodalanishi asosida insonning shaxs sifatida o`zini namoyon qilishining ayrim hollarini topishi, hayotning o`zida shunday shaxslar shakllanishiga yordam beruvchi muayyan shart – sharoitlarni, shaxsga xos sifat va fazilatlarni namoyon eta olish tufayli ro`y beradi.

O`zbekistonning mustaqillik davri psixologiyasida etakchi psixolog olimlardan M.Davletshin, E.G`oziev, G`SHoumarov, V. Karimova, B.Qodirovlarning insonparvar psixologiya sohasida olib borayotgan ishlari e`tiborga loyiqidir. Ularning psixologik tahlillari va ilmiy xulosalariga ko`ra barkamollikka erishishning bir necha mezonlari mavjud. Bu narsa jismoniy barkamollik, axloqiy barkamollik, betakrorlik, aql – zakovatilik singari shaxsning ijtimoiy – tarbiyaviy jarayonida o`z ifodasini topadi.

Barkamol shaxslar insonparvarlik g`oyalarini aks ettiruvchi kishilarning timsoli sifatida o`z hayot va faoliyatida o`zligini anglashi asosida o`z – o`zini nazorat qilish, o`z – o`zini baholash, o`z – o`zini boshqarish, o`z – o`zini ifodalay olish, o`z – o`zini kamol toptirish, o`z – o`zini namoyon qilish imkoniyatlariga ega bo`lmoqlari lozim. Bu esa o`z navbatida muayyan tarixiy davrni taqozo etadi. Biroq bu imkoniyatlardan hamma ham to`la foydalana olmaydi, chunki har bir shaxs o`ziga xoslikka ega bo`lganligi va uning ruhiyatida ehtiyoj bilan imkoniyat o`rtasida muayyan qarama – qarshiliklar mavjudligi sababli, ular o`rtasida tenglik alomatini qo`yib bo`lmaydi.

Darhaqiqat, odamzot va uni rivojlanishidagi har xillik muammosi azaliy dolzarbligicha qolaveradi. SHunga ko`ra, jamiyat mavjud ekan, uning qudrati va harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan insonning aql-idroki, ma`naviy kamoloti, ioksak his – tuyg`ulari, irodaviy fazilatlari va barkamollik salohiyatiga doir yangi – yangi ma`lumotlarga ega bo`lish masalasi jamiyat taraqqiyoti uchun o`z ahamiyatini aslo pasaytirmaydi. Xuddi shu sababli ham inson shaxsi, uning sirli imkoniyatlari, barkamollikka erishish qonuniyatları doimiy tadqiqot ob`ekti bo`lib qolaverishi tabiiy holdir.

Barkamollik to`g`risidagi mulohazalar ideal sharoitni aks ettirishga qaratilganligini ta`kidlab o`tish joiz. Biroq reallikdan uzoqlashish unga erishish imkoniyatini mavhumlashtiradi, inson real hayotda o`zini o`zi kashf qilish, o`zini ro`yobga chiqarish, qulay shart – sharoitlar yaratish orqaligina ioksak darajaga erishsa bo`ladi. Zero, barkamollikkka qo`yiladigan tarbiyaviy talablar darajasi va mezonlarni hayotiylashtirish orqali komil insonni shakllantirish mumkin.

Barkamollik tabiat, jamiyat, inson tafakkuri va hatto, butun borliqqa doir qonuniyatlarni chuqur anglash, undan amaliy faoliyatida oqilona foydalanish ko`rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Barkamollik aqliy, axloqiy, ma`naviy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ong ko`rinishlarida andozaviy namoyon bo`lishi bilan ifodalanadi.

Xullas, hozirgi ta`lim tizimida insonparvarlik psixologiyasi yotuqlaridan samarali foydalanish o`quv – tarbiya jarayonlari va uning natijalarini yanada hayotiyligini ta`minlash garovidir.

## MUNDARIJA

Tarixiy xotira – milliy o`zlkni anglash omili  
O`qituvchi mas`uliyati  
Ta`limdagi muhim muammolar  
O`qituvchilarda o`z millatiga xoslikni shakllanganligi  
Oila tarbiya o`chog`i  
Ajdodlarimiz tajribasi  
Samarali o`zlashtirishning muhim omillari  
Ona tili ta`limi jarayonida ijodkor shaxsni  
tarbiyalash omillari  
Ta`lim samaradorligini ta`minlovchi zarur  
milliy – madaniy omillar  
O`qituvchi etnik sifatlari haqidagi o`quvchilar

fikrlarini psixologik baholanishi  
Xalq siyoshi aks etgan manba  
Tilning aloqa vositasi sifatlari  
Qobiliyat nima?  
Ruhiy chidamlilik  
Abu Rayxon Beruniyning etnopsixologik qarashlariga doir  
Markaziy Osiyoda XV asr ta`limidagi demokratik g`oyalar  
O`qituvchi psixologiyasi mavzusi bayonida Alisher Navoiy  
merosidan foydalanish  
Axloqni ulug` etgan  
Nutq madaniyati shakllanishining psixologik asoslari  
Insonparvarlik – eng go`zal xislat